



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA  
TA'LIM MARKAZI

# UMUMIY O'RTA TA'LIMNING MILLIY O'QUV DASTURI

## GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT





# LOYIHA



## MUNDARIJA

<b>1. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR TAVSIFI .....</b>	<b>3</b>
1.1. Tabiiy va iqtisodiy fanlar integratsiyasi.....	5
<b>2. MAKTAB BITIRUVCHILARIGA TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BO'YICHA QO'YILADIGAN TALABLAR .....</b>	<b>6</b>
2.1. Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi.....	6
2.2. Amaliy kompetensiya.....	6
2.3. Tabiiy va iqtisodiy fanlar orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.....	7
<b>3. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANINI O'QITISH .....</b>	<b>7</b>
3.1. Geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitish Konsepsiyasi .....	8
3.2. Maktab bitiruvchilariga geografiya va iqtisodiyot fani bo'yicha qo'yiladigan talablar .....	17
3.3. Geografiya va iqtisodiyot fani bo'yicha o'quvchilarga sinflar kesimida qo'yiladigan talablar .....	20
<b>4. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANI BO'YICHA O'QUV DASTURLARI .....</b>	<b>24</b>
4.1. Geografiya, 7-sinf .....	25
4.2. Geografiya, 8-sinf .....	33
4.3. Geografiya va iqtisodiyot, 9-sinf .....	44
4.4. Geografiya va iqtisodiyot, 10-sinf .....	52
4.5. Geografiya, 11 sinf .....	59



## 1. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR

### 1.1 TAVSIFI VA FANLAR INTEGRATSIYASI

“Tabiiy va iqtisodiy fanlar” blok-moduli o‘z ichiga biologiya, geografiya va iqtisodiyot, fizika, kimyo va tabiiy fan (Science) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi. Blok-modul tarkibiga kiradigan o‘quv predmetlari o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jonli va jonsiz tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyati, sabablari va o‘zaro bog‘liqligi, tabiatning rivojlanish bosqichlari, jumladan, tirik organizmlarning evolyusiyasi, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari, tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi va ta‘siri, tabiiy va boshqa iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning ilmiy asoslari, xo‘jalik jarayonlarini samarali yuritish va boshqarish tamoyillari, sog‘lom turmush tarzining mohiyati va ahamiyati haqida nazariy hamda amaliy bilimlar tizimini tarkib toptirish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifalarini belgilab beradi.

O‘quvchining ichki motivatsiyasi tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘zlashtirishga qiziqishi, ular orqali tabiiy va ijtimoiy muhit holatini tushunishi, atrof-muhit va inson muammolarini anglashi, ularning echimini topishda qarorlarni qabul qila olishida muhim o‘rin egallaydi.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. SHu bilan birga, fanlararo integratsiya o‘quvchilarda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo‘llari, sog‘lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik asoslarini tushunish va kundalik hayotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

**STEAM** ta‘limi asosida tabiiy va iqtisodiy fanlar yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (**PISA, TIMSS**) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

**Tabiiy va iqtisodiy fanlarni** o‘qitishda nafaqat ularning o‘zaro ichki, balki tashqi, ya‘ni turdosh blok-modullar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan

integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro chambarchas aloqalari muhim hisoblanadi:



**Ona tili va adabiyot** o'quv predmetlari orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, yozma va og'zaki ravishda o'z qarashlarini ravon bayon etish malakalarini hosil qilishda, ilmiy atamalarni to'g'ri qo'llash hamda baxs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilishga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.



**Matematika** o'quv predmetida o'rgatiladigan malakalar tabiiy va iqtisodiy fanlar darslarida matematik o'lchov va hisob-kitoblar bilan bog'liq masalalarni yechish, laboratoriya va boshqa tajribalarni o'tkazish jarayonida eng maqbul echim topa olish va to'g'ri qaror qabul qilish uchun ahamiyatlidir.



**Informatika va axborot texnologiyalari** o'quv predmeti yordamida tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonining samaradorligini turli ko'rinishdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kompyuter texnikasidan foydalanish orqali oshirishga ulkan imkoniyatlarni yaratadi.



**Tarix** o'quv predmeti tabiiy va iqtisodiy fanlar bilan ham bevosita bog'langan. Ilm-fan yutuqlarining ishlab chiqarish sohalari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi va atrof-muhit holatiga ta'sirini ko'rsatishda tarixiy ma'lumotlarning ahamiyati kattadir.



**Texnologiya** o'quv predmeti orqali tarkib toptirilgan kompetensiyalar tabiiy va iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularning texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ijodiy loyiha tayyorlash malakalarini hosil bo'lishida yuqori kasbiy ahamiyatga ega hisoblanadi.



**Geografiya va iqtisodiyot** o'quv predmeti o'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va xo'jaligi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning geografik asoslari, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning global va hududiy muammolari, moliyaviy-iqtisodiy savodxonlik va bozor iqtisodiyoti asoslari haqida ilmiy-amaliy tushunchalarni shakllantiradi, mustaqil fikr-mulohaza yuritishni, geografik va iqtisodiy bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarda xaritalardan foydalana olish ko'nikmalari, ekologik va moliyaviy-iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Geografiya va iqtisodiyot fani o'quvchilarda tabiat, aholi va xo'jalik haqida tushunchalarni shakllantirish jarayonida fizika, kimyo va biologiya fanlariga oid ma'lumotlardan foydalanadi, turdosh fanlar sohasidagi bilimlarni o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mazmun-mohiyatiga singdiradi. Shu bilan birga, geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar boshqa tabiiy va iqtisodiy fanlarda o'rganiladigan obyekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi.



**Biologiya** o'quv predmetlari o'quvchilarda jonli tabiatning obyeksi va tizimini his etish, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradi. Jonli muhit muammolarini hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi yaxshilanadi. Bir vaqtning o'zida atrofimizni o'rab turgan jonli tabiatga ijobiy munosabat, tabiiy rang-baranglikni saqlab qolish, shuningdek, javobgarlikni his kilgan holda mustahkam hayotiy faoliyat shakllanadi.



**Fizika va astronomiya** o'quv predmetlarini o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishda fizika va astronomiya qonunlarini qo'llashni o'rganadilar. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlardan kundalik hayot faoliyatlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.



**Kimyo** o'quv predmetini o'rganish jarayonida o'quvchilar moddalar tarkibi, kimyoviy atamalarni farqlash, inson faoliyati va tabiatda ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarga ega bo'ladilar. O'quvchilar kimyoviy birikmalarning farqlarini, tabiiy tizimlarning kimyoviy asosini, moddalarning tuzilishi va tarkibining o'zaro bog'liqligini o'rganishadi. Kimyoviy moddalardan, maishiy kimyo mahsulotlaridan ehtiyokorlik bilan foydalanish va ular asosida eksperiment o'tkazish ko'nikmalari rivojlanadi.



## **2. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR (umumiy o‘rta ta‘lim bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)**

### **2.1. ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI**

nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini biladi, tasavvur qiladi va mohiyatini tushunadi;

kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanib tushuntiradi, amalda qo‘llaydi;

hodisalarni kuzatadi, tadqiqotlar, tajribalar o‘tkazadi va zaruriy kattaliklarni asboblari (sekundomer, tarozi, o‘lchov tasmasi, termometr va h.k.) yordamida o‘lchaydi, hisoblash ishlarini bajaradi;

turli axborot manbalarida berilgan ma‘lumotlarni tahlil qiladi, saralaydi, ulardan ta‘limiy maqsadlarda foydalanadi va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushunadi, mustaqil va ijodiy fikrlaydi;

jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘ladi hamda o‘z faoliyatini kreativ rivojlantira oladi;

tabiiy va boshqa resurslarning tabiatdagi o‘rni hamda shaxsiy faoliyatidagi ahamiyatini biladi;

insonning atrof-muhitga ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatishini tushuntiradi hamda global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini ayta oladi;

ekologik muammoni hal etish yo‘llari va g‘oyalarini ilgari suradi, o‘z fikrini bayon etadi.

### **2.2. AMALIY KOMPETENSIYA**

turli axborot manbalaridan zaruriy ma‘lumotlarni topa oladi, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo‘llaydi;

tabiiy fanlardan egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida vujudga keladigan muammolarni hal etishda qo‘llaydi;

turli jihozlardan xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda va oqilona foydalanadi;

mavjud imkoniyat va resurslarini innovatsion faoliyatga yo‘naltira oladi va xalq farovonligiga ijobiy hissa qo‘shadi;

insoniyat va tabiatning uzviyligini anglagan holda, tabiat va tabiiy boyliklaridan samarali foydalanadi;

atrof muhit va ekologik sharoitga salbiy ta‘sir etuvchi omillarni bartaraf etadi hamda asraydi va o‘z faoliyatida sog‘lom turmush tarziga amal qiladi;

kundalik faoliyatida ijodiy va mantiqan fikrlab, o‘zining intellektual rivojlanishini ongli rejalashtiradi, o‘quv faoliyati natijalarini nazorat qiladi va baholay oladi.



### 2.3. TABIIY VA IQTISODIY FANLAR ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda tabiiy va iqtisodiy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini** shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini** shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.





### 3. UMUMIY O'RTA TA'LIMDA GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANINI O'QITISH

#### 3.1. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANINI O'QITISH KONSEPSIYASI

##### 1-bob. UMUMIY QOIDALAR

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida Geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini" va 2019 yil 30 oktyabrdagi PF-5863-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Konsepsiya xalq ta'limi tizimida geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

Jumladan, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasidagi yutuqlaridan foydalanib milliy xususiyatlarni va respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda ta'lim sohasini takomillashtirish;

geografiya va iqtisodiyot fani davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

geografiya va iqtisodiyot fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

geografiya va iqtisodiyot fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, tabiatni o'rganish, undan foydalanish va muhofaza qilish, o'lkashunoslik va turizm, moliyaviy-iqtisodiy savodxonlikni oshirish bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni hosil qilishda maktabdan tashqari ta'limning to'garak, ekskursiya va boshqa zamonaviy yo'nalishlarini joriy etish;

geografiya va iqtisodiyot fanini umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni tabiat, aholi va xo'jalikni o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar bilan bog'liq bo'lgan mutaxassisliklarga qiziqtirish orqali kasbga yo'naltirishni tashkil etish;

geografiya va iqtisodiyot fanining mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy va ekologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

o'quvchilarni dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash;



geografiya va iqtisodiyotdan zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;

geografiya va iqtisodiyot fanidan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;

geografiya ta'limida uzluksiz ekologik ta'limni amalga oshirish va o'quvchilarda atrof-muhit masalalarida qaror qabul qilishni shakllantirish;

geografiya va iqtisodiyot fani milliy o'quv dasturida ko'zda tutilgan kompetensiyalarni shakllantirishda o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish;

ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borish, o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki mehnatsevar, ma'naviy, ahloqiy yetuk shaxs sifatida shakllantirish;

ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'lanishni ta'minlash;

o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlari asosida egallagan kompetensiyalarini baholashning barcha sinflarda qo'llanila oladigan yagona tizimini yaratish va joriy etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya va iqtisodiyot fanidan ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

## **2-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT TA'LIMINING AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga bilim berishning zamonaviy pedagogik innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishi, ya'ni 2030 yilga kelib iqtisodiyotning fan va texnika yo'nalishi bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim maktablari uchun majburiy bo'lgan Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, yangilanishini, ta'lim mazmuni va o'qitishning takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida 11 yillik ta'lim joriy qilinishi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimining funksiyalari o'zgarishi hisobiga geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitish mazmuni va metodikasining rivojlanishida ayrim bo'shliq va kamchiliklar yuzaga kelgan, jumladan:



geografiya va iqtisodiyot fanining o'quv metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limlari va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasini qaytadan ko'rib chiqish;

fanni o'qitishda mavzular kesimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasining ishlab chiqilmaganligi;

STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligi;

o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan mashg'ulotning shakl va usuli ishlab chiqilmaganligi;

mavjud oliy ta'lim muassasalarida geografiya fani yo'nalishida pedagog-kadrlarni o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos kompetent kadrlarni tayyorlashni taqazo etadi.

### **3-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANI KONSEPSIYASINING ASOSIY MAQSADI VA RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Umumiy o'rta ta'lim tizimida geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitishning maqsadi:**

o'quvchilarda hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan geografik madaniyatni, ya'ni geografik dunyoqarash, tafakkur va bilimlar, ularni hayotiy va kasbiy amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini (kompetentlikni) hamda moliyaviy-iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish;

o'quvchilarda Yer sayyorasi va uning hududiy qismlari haqida yaxlit bilimlarni shakllantirish, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik hodisa va jarayonlarni tushunish uchun ilmiy-metodologik zamin yaratish, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, iqtisodiy resurs va ne'matlardan tejamkorlik bilan foydalanish borasida hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularni taxliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashini rivojlantirishdan iborat.

**Geografiya va iqtisodiyot ta'limining vazifalari:**

Yer sayyorasi va uning alohida hududlari, jumladan Vatanimiz O'zbekistonning tabiati, aholisi va xo'jaligi haqidagi tizimli bilimlarni hosil qilish;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish;



jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari, sabab-oqibatlarini tushuntirish va yyechish yo'llari to'g'risida tushuncha hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatini o'stirish;

turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy obyekt va hodisalarni tavsiflash, geografik xaritalar va statistik ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

joy nomlari va geografik atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

geografik va iqtisodiy bilimlar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish;

yosh avlodning moliyaviy-iqtisodiy savodxonligini shakllantirish, iqtisodiy atamalarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish;

o'quvchilarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xususiyatlarini rivojlantirish; o'quvchilarni o'lkashunoslik tamoyili asosida Vatanga muhabbat, milliy iftixor, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash;

ta'lim-tarbiyada fanlararo bog'lanishni ta'minlash;

global Internet tarmog'idan foydalangan holda dars jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarini joriy etishdan iborat.

#### **4-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT O'QUV FANINING TUZILISHI VA MAZMUNI**

Umumiy o'rta ta'lim tizimida geografiya va iqtisodiyot fani tuzilishi quyidagi kurslarning ketma-ketligidan iborat:

7-sinf – Geografiya (Mteriklar va okeanlar tabiiy geografiyasi);

8-sinf – Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi);

9-sinf – Geografiya va iqtisodiyot (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Iqtisodiyot asoslari);

10-sinf – Geografiya va iqtisodiyot (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Jahon iqtisodiyoti asoslari);

11-sinf – Geografiya (Umumiy geografiya).

#### **Geografiya va iqtisodiyot kurslarining tayanch mazmuni:**

7-sinf Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi) kursi okeanlar, materiklar va qit'alar haqida umumiy tushuncha, geografik qobiqning mohiyati va chegaralari, materik va okeanlarning shakllanishi va rivojlanishi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, tabiat komplekslari va ularning zonalligi, Yer yuzi aholisi, uning joylanish xususiyatlari, tabiat bilan aloqadorligi, okean tubi relyefi, okean suvining xususiyatlari, dengiz oqimlari, har bir materikning geografik o'rni, tabiatini o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi va iqlim mintaqalari, ichki suvlari, tabiat zonalari, tabiiy geografik o'lkalari, aholisi va uning hududiy tarqalishi, tabiatiga insonning ta'siri, antropogen landshaftlar, ekologik



muammolari, tabiatini muhofaza qilish, har bir okeanga kompleks tabiiy geografik tavsif kabi masalalarni qamrab olgan.

8-sinf Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi) kursi O'rta Osiyo va O'zbekistonning geografik o'rni va tabiatining o'ziga xos xususiyatlari, tabiatining o'rganilish tarixi, siyosiy-ma'muriy xaritasi, geologik tuzilishi va tarixi, seysmikligi, foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tabiat mintaqalari va tabiiy geografik rayonlashtirilishi, geografik xarita va atlaslarning tasniflanishi, topografik xaritalar, vaqt o'lchovi, soat mintaqalari va taqvimlar kabi masalalarni qamrab olgan.

9-sinf Geografiya va iqtisodiyot (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Iqtisodiyot asoslari) kursi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, iqtisodiyot fanlarining obyekt va predmeti, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-geografik o'rni, ma'muriy-hududiy tuzilishi, tabiiy sharoit va resurslarining aholi joylashuvi va xo'jalikka ta'siri, aholisining soni, o'sishi, tabiiy va mexanik harakati, tarkibi va joylashuvi, mehnat resurslari va aholi bandligi, shahar va qishloq aholi punktlari, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, turizmi, tashqi iqtisodiy aloqalari, har bir iqtisodiy rayon, 12 ta viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahriga kompleks tavsif, bozor iqtisodiyoti tamoyillari, iste'molchilarning daromad va xarajatlari, korxonalar va tadbirkorlik faoliyati, uning moliyaviy natijalari, soliq va soliqqa tortish kabi masalalarni qamrab olgan.

10-sinf Geografiya va iqtisodiyot (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Jahon iqtisodiyoti asoslari) kursi dunyoning siyosiy xaritasi, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi jihatidan tasniflanishi, dunyoning tabiiy resurslari geografiyasi, zamonaviy ekologik muammolar, Yer shari aholisi, urbanizatsiya jarayoni, jahon xo'jaligi, uning tarmoq va hududiy tuzilishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va inqirozlar, qit'alarining geografik o'rni, siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi, iqtisodiyoti, tayanch mamlakatlarning kompleks tavsifi kabi masalalarni qamrab olgan.

11-sinf Geografiya (Umumiy geografiya) kursi geografiya fanlari tizimi, uning qisqacha tarixi va hozirgi kundagi rivojlanishi, Yer yuzi tabiati rivojlanishining fazoviy va sayyoraviy omillari, geografik qobiqning umumiy qonuniyatlari, geotizimlar va ularning iyerarxik tuzilishi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tarixiy bosqichlari, landshaftlarning antropogenlashuvi va ularni muhofaza qilish, dunyo aholisi va zamonaviy demografik vaziyat; urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining global va regional jihatlari, dunyoning geosiyosiy tizimi, uning rivojlanishi va hozirgi holati, insoniyatning global muammolari, Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Okeaniyaning subregionlari, Markaziy Osiyo va O'zbekistonning kompleks geografik tavsifi, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqaror rivojlanishining geografik jihatlari o'rganishga bag'ishlangan.



## 5-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANINING O‘QUV-METODIK TA‘MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida geografiya va iqtisodiyot fanining ilmiy metodik ta‘minotini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an‘analar uyg‘unligida geografiya fani bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;

geografiya va iqtisodiyot fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

umumiy o‘rta ta‘limning tayanch o‘quv rejasida belgilangan geografiya va iqtisodiyot fani o‘quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo‘yicha taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

tayanch o‘quv rejaga muvofiq geografiya va iqtisodiyot fanining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

geografiya va iqtisodiyot fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni (darslik, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovalari) bosqichma-bosqich takomillashtirish;

geografiya va iqtisodiyot fanining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

geografiya va iqtisodiyot fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

o‘quv-metodik majmualar ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o‘quvchilarning yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

umumiy o‘rta ta‘limning zarur hajmi berilganligi, o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi.

O‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo‘yiladi:

### **a) didaktik talablar:**

o‘quvchi tomonidan o‘quv materiallarining to‘liq o‘zlashtirilishini ta‘minlash;

matnlar axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

o‘lkashunoslik tamoyili asosida o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy iftixor, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatini o‘stirishi;



ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

tayanch tushunchalar, atamalar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

**b) ilmiy-metodik talablar:**

fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

savollar va amaliy mashg'ulot topshiriqlari aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, tahlil qilishga, hisoblashga, amaliy topshiriqlarni bajarishda pedagogik texnologiyalarning turli metod va usullaridan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalanishiga, sanalar, statistik ma'lumotlarni keltirishda ikki xillikka yo'l qo'yilmaslik.

**v) pedagogik-psixologik talablar:**

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

**g) estetik talablar:**

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;



rasm va xaritalar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

**d) gigienik talablar:**

matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

## **6-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH**

Geografiya va iqtisodiyot fani o'quv xonalarini jihozlashda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy o'quv jihozlari dunyoni virtual ko'rish va topshiriqlarni bajarish uchun dasturiy ta'minot bilan ta'minlash;

zamonaviy mebel, jihozlar (tabiiy, siyosiy globus, geografik xaritalar) geografiya maydonchasida foydalaniladigan asbob-uskunalar va moslamalar;

o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska va o'quv ko'rgazmali qurollarning elektron resurslar planshet va multimedia resurslari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralarini ko'rish.

## **7-bob. GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT TA'LIMI JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH ORQALI INNOVATSION INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH**

Geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

geografiya fani bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (innovatsion darslik, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

o'quvchilarni qo'shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shakllarida xabardor kilib turish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga geografiya fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik





majmualarni, elektron ta'lim resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish va undan foydalanishni tizimli yo'lga qo'yish.

Geografiya va iqtisodiyot ta'limining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

o'quvchilar tomonidan yaratilgan ijodiy loyiha ishlari natijalarini tijoratlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda geografik startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori iqtidorli o'quvchi-yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish;

geografiya va iqtisodiyot fanidan o'qituvchilar uchun amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar, o'quvchilar uchun esa ishchi daftarlarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;

sinflar kesimida elektron darslik va elektron videonamoyishlar to'plamini yangi dastur asosida takomillashtirish;

geografik, iqtisodiy va ekologik bilimlarni oshirishga qaratilgan elektron o'quv qo'llanmalar, resurslar yaratish;

geografiya fani bo'yicha xalqaro olimpiadalarda ishtirok etish va iqtidorli o'quvchilar ishtirokini oshirish.

## **8-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi.

O'quvchilar mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (**PISA, TIMSS**) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar hamda topshiriqlarni mustaqil bajarishga va ijodiy, kreativ fikrlash o'rgatadi.

O'quvchilarda tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy obyekt, jarayon va hodisalar, Vatanimiz tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiatdan oqilona foydalanish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishning global va hududiy muammolari haqida ilmiy va amaliy tushunchalarni shakllantiradi.

Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarda xaritalardan foydalana olish ko'nikmalari, ekologik, iqtisodiy va geosiyosiy savodxonlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



O'quvchilar yaratilgan elektron kitoblar mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (innovatsion darslik, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) dan tizimli foydalanadilar.

O'quvchilar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim olishga erishadilar.

Geografiya va iqtisodiyot fani o'quvchilarda tabiat, aholi va xo'jalik haqida tushunchalarni shakllantirish jarayonida fizika, matematika, kimyo, biologiya, tarix fanlariga oid ma'lumotlardan foydalanadi, turdosh fanlar sohasidagi bilimlarni o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mazmun-mohiyatiga singdiradi.

Geografiya va iqtisodiyot fanini o'qitish natijasida shakllantiriladigan tushuncha va kompetensiyalar boshqa tabiiy fanlarda o'rganiladigan obyekt, hodisa va jarayonlar haqida kompleks tasavvurni tarkib toptirishga xizmat qiladi.



## 3.2. UMUMIY O'RTA TA'LIM BITIRUVCHILARIGA GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR

### ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI

Quyosh sistemasining tuzilishi, Yerning shakli va harakatlari, ularning geografik oqibatlarini tavsiflaydi;

Yer po'sti, mantiya va yadro tuzilishining asosiy xususiyatlarini tushunadi;

litosferaning tektonik plitalardan tashkil topganligi va plitalar harakatlarining sabablari hamda oqibatlari, zilzila va vulqon otilishlarini keltirib chiqaradigan omillarni tushunadi;

minerrallar, tog' jinslari, ularning asosiy turlarini ajratadi;

foydali qazilmalar tarqalishidagi geologik va tabiiy geografik qonuniyatlarni tushunadi;

relyef shakllari va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunadi;

yerusti va yerosti suvlarining paydo bo'lishi, manbalari va xususiyatlarini biladi, ulardan oqilona foydalanishning ahamiyatini anglaydi;

Dunyo okeani va uning qismlarining tuzilishi, ularning sayyoramiz tabiatidagi ahamiyatini tavsiflaydi;

gidrotexnik inshootlarning mohiyati va turlarini tavsiflaydi, ularning xo'jalikdagi ahamiyati va tabiatga ta'sirini tushunadi;

atmosferaning tarkibi va tuzilishi, sayyoramiz hayotidagi o'rnini tavsiflaydi;

Yer yuzida iqlimning xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi omillarni tushunadi;

global iqlim o'zgarishlariga insonning ta'sirini anglaydi;

Yer yuzida mavjud asosiy tabiat zonalarini tavsiflaydi, o'zaro ajratadi va taqqoslaydi;

geografik o'rin, iqlim va relyefning Yer yuzi tabiati (geotizimlar) xilma-xilligiga ta'sirini tushunadi, misollar bilan izohlaydi;

geografik qobiqning asosiy qonuniyatlari – bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini tushunadi;

Yer yuzi tabiatining vaqt davomida o'zgarishi va rivojlanishini, uning sabablarini anglaydi;

Yer yuzining materik va qit'alarga bo'linishini, turli materiklar tabiatining asosiy xususiyatlarini tavsiflaydi, ularning hududiy xususiyatlarini o'zaro taqqoslaydi;

O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif beradi;

O'zbekiston tabiati tekisliklardan tog'larga tomon o'zgarib borish qonuniyatini va uning ahamiyatini tushunadi;

aholining zamonaviy bosqichdagi tabiiy va migratsion harakatining mohiyati va ularga ta'sir etuvchi omillarni tushunadi;



jahon va O'zbekistonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi;

aholi zichligi va joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillarni, dunyodagi yirik davlatlar, O'zbekiston aholisining o'sishi, yosh-jins tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi;

insoniyatning asosiy irqalarini farqlaydi, ularning paydo bo'lishini geografik muhit bilan bog'laydi va hududiy tarqalishini tavsiflaydi;

O'zbekiston, qo'shni davlatlar, jahonning yirik davlatlari aholisining milliy va diniy tarkibini tavsiflaydi;

dunyo va yirik milliy dinlarning geografik tarqalishini tavsiflaydi;

tabiiy resurslarning ahamiyati tushunadi va asosiy turlarini ajratadi;

tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarning dolzarb ekologil muammolarining mohiyati, sabab va oqibatlarini tushunadi;

O'zbekiston va qo'shni Markaziy Osiyo mamlakatlarida yagona ekologik muhit va transchegaraviy ekologik muammolar mavjudligini tushunadi;

O'zbekistondagi tabiatdan foydalanish bilan bog'liq muammolar – suv resurslarining tanqisligi, yerlarning sho'rlanishi, cho'llashishning mohiyati, sabablari va ularning oldini olish choralarini tavsiflaydi;

Orol va Orolbo'yidagi ekologik muammolarning dolzarbligini tushunadi;

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirayotgan islohotlarning mamlakat, alohida hududlari, jumladan o'zi yashaydigan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tushunadi;

ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish omillarini tushunadi, alohida tarmoq yoki korxonalar misolida ularni izohlaydi;

jahon xo'jaligi va milliy iqtisodiyot tarmoqlar tarkibini, turli xo'jalik tarmoqlarining ahamiyatini tushunadi;

asosiy iqtisodiy tushuncha va atamalarning mazmun va mohiyatini tushunadi, hayotiy va ta'limiy vaziyatlarda ularni to'g'ri qo'llaydi;

iqtisodiy hodisa va jarayonlarni shaxs va jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qiladi;

bozor iqtisodiyoti tamoyillari va qonuniyatlarini tushunadi;

dunyoing yirik mintaqa va davlatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va ixtisoslashuvini tavsiflaydi va o'zaro taqqoslaydi;

O'zbekiston, uning hududlari sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, unga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflaydi;

dunyoing siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o'zgarib borish xususiyatini tushunadi;

Markaziy Osiyo va O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy geografik o'rnini tavsiflaydi;

xalqaro geosiyosiy munosabatlarning hozirgi zamondagi xususiyatlari, ularning muammoli jihatlari va O'zbekiston uchun ahamiyatini tushunadi;

O'zbekiston faol hamkorlik qiladigan xalqaro tashkilot va uyushmalar faoliyatining mohiyatini tushunadi;



insoniyatning global muammolari, ularning shakllanish sabablari haqida tushunchaga ega bo'ladi.

### **AMALIY KOMPETENSIYA**

Globus, dunyo hamda O'zbekistonning tabiiy va siyosiy xaritalaridan yirik geografik obyektlarni ko'rsatadi;

tabiiy va siyosiy xaritalardagi yirik geografik obyektlarni yozuvsiz xaritaga tushuradi;

globus hamda xaritalarning masshtabi yordamida masofalar va geografik obyektlarning o'lchamlarini hisoblaydi;

globus va geografik xaritalar daraja to'ri (meridian va parallellar) dan geografik obyektlarning joylashgan o'rnini aniqlaydi;

geografik xaritalar yordamida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va xo'jaligi haqida ma'lumotlarni tahlil qiladi;

geografik atlas va xaritalardan sayohatlarda foydalanadi;

ufq tomonlarini kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlaydi;

havo haroratini o'lchashda termometrdan to'g'ri foydalanadi;

tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning turli ko'rsatkichlarini (harorat, yog'in miqdori, aholi soni va hokazo) tasvirlovchi grafiklarni tahlil qiladi;

berilgan ma'lumotlardan foydalanib, jadval, grafik va diagrammalarni tuzadi;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar doir masala va amaliy topshiriqlarni mustaqil yechadi;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kuzatish orqali ularning inson turmushi va hayotiy faoliyatiga ta'sirini aniqlaydi;

materik, qit'a, okean, davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlar, relyef shakllari, suv obyektlari va foydali qazilma konlarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi;

O'zbekiston hududlari, katta shaharlari, relyef shakllari, suv obyektlari, cho'llari, foydali qazilma konlari, sanoat korxonalarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi;



### 3.3. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR (7-11-SINFLAR)

Kodi	7-SINF
	<b>ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI</b>
	Quruqlik va okean tubining geologik tuzilishining asosiy xususiyatlari va ularning turli tabiat hodisalarini keltirib chiqarishdagi ahamiyatini tushunadi;
	Yer yuzidagi yirik relyef shakllari va ularning qanday hosil bo'lganligini tushunadi;
	Dunyo okeani va uning qismlarini tavsiflaydi;
	yirik okean oqimlarini va ularning sayyoramiz tabiatiga ta'sirini biladi;
	iqlim mintaqalarini o'zaro ajrata oladi va ularning hosil bo'lish sabablarini tushunadi;
	sayyoramiz iqlimining o'zgarib borayotganini tushunadi;
	geografik o'rin, okeanlar, iqlim va relyefning Yer yuzi tabiati xilma-xilligiga ta'sirini tushunadi, misollar bilan izohlaydi;
	Yer yuzidagi asosiy tabiat zonalarini ajratadi va tavsiflaydi;
	materiklar aholisining zichligi va joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillarni tushunadi;
	turli materiklarda vujudga kelgan ekologik muammolar mohiyatini tushunadi.
	<b>AMALIY KOMPETENSIYA</b>
	geografik xaritalar yordamida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslari haqida ma'lumotlar oladi;
	materiklar, okeanlarning tabiiy sharoiti va resurslarini o'zaro taqqoslaydi;
	Materik, qit'a, okean, dunyodagi yirik relyef shakllari va suv obyektlarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi;
	Yer yuzi tabiatining o'zgarib borishida inson faoliyatining o'rnini misollar bilan izohlaydi.
	<b>8-SINF</b>
	<b>ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI</b>
	O'rta Osiyo va O'zbekistondagi relyef shakllari va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunadi;
	O'rta Osiyo va O'zbekistonning geologik o'tmishini biladi;
	O'zbekiston va qo'shni mamlakatlardagi yirik foydali qazilma konlarini biladi;
	O'rta Osiyo va O'zbekistondagi daryolarning to'yinishi va suv rejimi xususiyatlarini tavsiflaydi, yirik daryo va ko'llarining geografik o'rne, muhim tabiiy xususiyatlari va xo'jalikdagi ahamiyatini biladi;
	o'lkamizda suv omborlarini qurishning zarurati va ulardan foydalanish tartibini tushunadi;
	O'rta Osiyo va O'zbekiston iqlimiga ta'sir etuvchi asosiy havo massalari, ularning kirib kelish yo'nalishi va muddati, ular ta'sirida ro'y beradigan ob-havo jarayonlarini biladi;
	O'zbekiston tabiati tekisliklardan tog'larga tomon o'zgarib borish qonuniyati va uning ahamiyatini tushunadi;
	O'rta Osiyo aholisi soni, uning notekis joylashuvi va bunga ta'sir qiluvchi geografik omillarni biladi;



	<p>O'rta Osiyo siyosiy xartasining o'tmishdagi va hozirgi holatini biladi; Orol va Orolbo'yidagi ekologik muammolarning alohida dolzarbligini tushunadi.</p>
	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KOMPETENSIYA</b></p>
	<p>tabiiy xaritadan balandlik va chuqurlik shkalalari yordamida eng baland tog'larni va eng chuqur cho'kma hamda botiqlarni aniqlaydi; Yozuvsiz xaritaga O'rta Osiyodagi eng muhim tog'lar, platolar, botiqlar, tekisliklar, cho'llar va yirik foydali qazilma konlarini belgilaydi; vaqt hisobi va soat mintaqalarga doir hisob-kitob masalalarini yechadi; O'rta Osiyo va O'zbekistondagi geografik obyektlar, yirik relyef shakllari va suv obyektlarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi; O'rta Osiyo va O'zbekiston hududida ro'y berayotgan ekologik-geografik jarayonlar, ularning aholi va xo'jalikka ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qiladi; O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlarida tabiatni muhofaza qilish muammolari haqida o'z fikrini bildira oladi.</p>
	<p style="text-align: center;"><b>9-SINF</b></p>
	<p style="text-align: center;"><b>ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI</b></p>
	<p>O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy geografik o'rnining asosiy xususiyatlari va ularning mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tushunadi; O'zbekiston ma'muriy-hududiy tuzilishini ko'p pog'onali tizim sifatida tushunadi; O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarining aholi joylashuvi va xo'jalikka ta'sirini tushunadi; O'zbekiston aholisining o'sishi, tarkibi va joylashuvini, urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi; O'zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirayotgan islohotlarning mamlakat, alohida hududlari, jumladan o'zi yashaydigan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tushunadi; milliy iqtisodiyot tarmoqlar tarkibini, turli xo'jalik tarmoqlarining hayotiy ahamiyatini tushunadi; O'zbekiston, uning hududlari sanoati va qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, unga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflaydi; ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish omillarini tushunadi, alohida tarmoq yoki korxonalar misolida ularni izohlaydi; mamlakat ichidagi hududiy mehnat taqsimoti, uning ahamiyati va unga ta'sir etuvchi geografik omillarni tushunadi; sanoat ishlab chiqarishi ta'sirida vujudga kelgan ekologik muammolar mohiyatini tushunadi; qishloq xo'jaligi uchun yer va suvdan oqilona foydalanishning ahamiyati, O'zbekiston sharoitida qo'llaniladigan melioratsiya tadbirlarining mohiyatini tushunadi. asosiy iqtisodiy tushuncha va atamalarning mazmun va mohiyatini tushunadi, hayotiy va ta'limiy vaziyatlarda ularni to'g'ri qo'llaydi; iqtisodiy hodisa va jarayonlarni shaxs va jamiyat nuqtai nazaridan tahlil qiladi; bozor iqtisodiyoti tamoyillari va qonuniyatlarini tushunadi.</p>
	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KOMPETENSIYA</b></p>
	<p>O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy xartasidan ma'muriy-hududiy birliklar va katta shaharlarni ko'rsatadi; ijtimoiy-iqtisodiy xartalar bilan mamlakat va hududlarning aholi va xo'jaligi</p>



	to'g'risidagi ma'lumotlar manbai sifatida foydalanadi;
	iqtisodiy-ijtimoiy hodisa va jarayonlarning turli ko'rsatkichlarini (aholi soni, tarkibi va o'sishi, ishlab chiqarish hajmi va hokazo) tasvirlovchi grafiklarni tahlil qiladi;
	aholi harakati, zichligi va tarkibi, tashqi savdo aylanmasi va balansi, hududiy ixtisoslashuvni aniqlashga doir hisob-kitob masalalarini yechadi;
	O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari, viloyatlari, katta shaharlari, sanoat korxonalarini va konlarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi;
	iqtisodiy resurslarga maqbul ravishda egalik qiladi, ulardan samarali foydalanadi, ijtimoiy ne'matlarga tejamkor va oqilona munosabatda bo'ladi.
	<b>10-SINF</b>
	<b>ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI</b>
	Jahonning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o'zgarib borish xususiyatini tushunadi;
	turli tabiiy resurslarning jahon bo'yicha hududiy taqsimlanishi va unga ta'sir etuvchi geografik omillarni tushunadi;
	tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi;
	dolzarb global ekologik muammolarining mohiyati, sabablari, oqibatlarini, ularning yechimini topish va ta'minlash borasida jahon hamjamiyatining harakat choralari tushunadi;
	dunyo aholisi soni, o'sishi, yosh-jins tarkibi va joylashuvining asosiy xususiyatlari, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sirini tushunadi;
	dunyo aholisining irqiy, milliy va diniy tarkibi, asosiy dinlarning hududiy tarqalishini tavsiflaydi;
	jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi;
	jahon xo'jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o'zgaruvchanligini tushunadi;
	dunyoning yirik mintaqalar va davlatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va ixtisoslashuvini tavsiflaydi va o'zaro taqqoslaydi;
	jahon mintaqalari va yirik davlatlari tabiiy sharoiti va resurslarining xususiyatlari, ularning aholi joylashuvi va xo'jalikka ta'sirini tushunadi;
	jahon mintaqalari va yirik davlatlari aholisining o'sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi;
	jahon mintaqalari va yirik davlatlarining sanoati, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining ixtisoslashuvi, unga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.
	<b>AMALIY KOMPETENSIYA</b>
	Siyosiy xaritalardan davlatlar va ularning poytaxtlarini ko'rsatadi;
	xaritalar yordamida davlatlarning geografik o'rnini baholaydi, tabiati, aholisi va iqtisodiyoti haqida ma'lumotlarni oladi, ularni taqqoslaydi;
	aholi dinamikasi, tarkibi, zichligi va urbanizatsiyaga doir masalalarni yechadi;
	turli ma'lumot manbalaridan foydalanib geografik mavzularda taqdimot tayyorlay oladi;
	qit'alar, davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlar, relyef shakllari, konlar, suv obyektlarining nomlarini to'g'ri qo'llaydi;
	asosiy milliy va xalqaro iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda modellar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, iqtisodiy xaritalar kabi iqtisodiy tahlil vositalaridan o'rinli foydalanadi.





## 11-SINF

### ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASI

Zamonaviy geografiya umumiy obyekt va vazifalar bilan o'zaro bog'langan bir nechta fan tarmoqlaridan iborat tizm ekanligini tushunadi, geografik fanlarni o'zaro ajrata oladi;

geografik bilimlar rivojlanishining tarixiy bosqichlarini farqlaydi;

fazoviy va sayyoraviy omillarning sayyoramiz tabiatiga ta'sirini tushunadi;

Yer po'sti, mantiya va yadro tuzilishining asosiy xususiyatlari, plitalar harakatlarining sabablari hamda oqibatlarini tushunadi;

xalqaro geoxronologik jadvalning mazmuni va tuzilishini tushunadi;

geografik qobiqning tuzilishi, xususiyatlari va asosiy qonuniyatlari – bir butunlik, modda va energiya almashinuvi, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini tushunadi;

geotizim tushunchasi mohiyatini, Yer yuzidagi geotizimlarning asosiy xususiyatlari hamda ularning sayyoraviy, regional va topologik darajalarga bo'linishini tushunadi;

aholining zamonaviy bosqichdagi tabiiy harakatiga ta'sir etuvchi omillarni, demografik o'tish jarayonining mohiyatini tushunadi;

urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining tarixiy rivojlanish bosqichlari, uning globallashib ketayotganligini tushunadi;

xalqaro migratsiyalarning turlari, geografiyasi, ularning sabab va oqibatlarini tushunadi;

xalqaro geosiyosiy munosabatlarning hozirgi zamondagi xususiyatlari, ularning muammoli jihatlari va O'zbekiston uchun ahamiyatini tushunadi.

O'zbekiston faol hamkorlik qiladigan xalqaro tashkilot va uyushmalar faoliyatining mohiyatini tushunadi.

insoniyatning global (tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, ekologik, energetika, sanoat xom ashyosi va oziq-ovqat) muammolarining mohiyatini tushunadi;

sayyoraviy, regional va lokal (mahalliy) geoekologik muammolarni farqlaydi;

### AMALIY KOMPETENSIYA

Xaritadan tabiiy va geosiyosiy voqea hamda jarayonlarni tahlil qiladi;

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy va iqtisodiy geografik o'rnini xarita yordamida baholaydi;

axborot manbalaridan foydalanib jahon va O'zbekistondagi tabiiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik voqea, hodisa va jarayonlarni kuzatadi va tahlil qiladi;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning turlarini farqlaydi va tavsiflaydi;

O'zbekiston hududidagi dolzarb geoekologik muammolar va ular yechimining geografik asoslarini tahlil qiladi;

iqtisodiy munosabatlarga amaldagi qonunchilik doirasida kirisha oladi.



## TUSHUNTIRISH XATI

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtda maktablarda geografiya va iqtisodiyot fanini mazmun jihatdan yangicha o'qitish zamon talabidir.

Xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan. Geografiya va iqtisodiyot o'quv fanini o'rganishning birinchi davri 1-6-sinflarda Science dasturi asosida o'qitiladi. Fanni o'rganishning ikkinchi davri umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-11-sinflarda Yer sayyorasining tuzilishi, tektonik jarayonlar va yer osti boyliklar, ob-havo va iqlim hodisalari, yer va suv resurslari, tabiiy va antropogen landshaftlar (geotizimlar), tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, aholi tarkibi va joylashuvi, demografik va migratsion jarayonlar, iqtisodiyot tarmoqlari hamda ijtimoiy sohalarning rivojlanishi va joylashuvi, bozor iqtisodiyoti tamoyillari, tadbirkorlik va korxonalar faoliyati, geosiyosiy tizim va jarayonlarini global va hududiy miqyosda o'rganishga bag'ishlangan bo'limlarida spiralsimon shaklda ma'lumotlar berilib, o'quvchilarga berilgan bilim asosida hosil bo'lgan ko'nikma va malaklarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi.

O'qituvchi darsini tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, amaliy topshiriq o'quv atlaslari va xarita bilan ishlash va boshqa) shakllaridan foydalanishi; darsni tashkil etishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, ularni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan, muammoli ta'lim, loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur o'quv dasturida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan **amaliy mashg'ulotlar**, o'quvchilarni mustaqil bajarishga va ijodiy fikrlashga undovchi **amaliy topshiriqlar** berilishi maqsadga muvofiq.

**Amaliy mashg'ulot** strukturasi mashg'ulotni bajarish tartibi va uni o'tkazish uchun zarur o'quv jihozlari nomlari keltiriladi. O'quvchi berilgan topshiriq asosida tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni kuzatadi, aniqlaydi, tahlil qiladi. Amaliy mashg'ulot darsi uchun alohida soat ajratiladi.

**Loyiha** ishini tashkil etishdan oldin o'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqadi. Sinfdagi o'quvchilar yakka yoki guruhlariga bo'linib, mavzu bo'yicha belgilangan vaqt davomida mustaqil



ravishda turli manba (darslik, internet tizimi) lardan axborotlar yig'adi, loyiha qurilmasini shakllantiradi va o'quv-tadqiqot ishini o'tkazadilar. Loyiha ishida ta'lim oluvchilar ishni rejalashtirish, uni bajarish, xulosa chiqarish, ish natijasi yuzasidan taqdimot o'tkazadilar. Loyiha ishi o'quvchilarda takliflarni ishlab chiqish va ijodkorlik faoliyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

**Amaliy topshiriq** tarkibi mashg'ulot mavzusiga oid jihozlar ro'yxati, mashg'ulot mavzusiga oid matn, rasm, grafik yoki jadval orqali ifodalanadi. O'quvchi berilgan topshiriqlarni tavsiya etilgan jihozlar, matn, xarita, rasm, grafik va jadvaldan foydalanib bajaradilar va o'z xulosalarini bayon qiladilar. Amaliy topshiriqlar o'tilgan mavzular kesimida yoki fanlararo aloqadorligini qamrab oluvchi topshiriqlar bo'lishi mumkin. Ushbu o'quv dasturida boblar kesimida mavzularga ajratilgan umumiy soatlar hajmi keltirilgan bo'lib, ularning taqsimlanishi o'qituvchi tomonidan ijodiy yondoshgan holda amalga oshiriladi.



## VII SINIF

### GEOGRAFIYA (MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI)

#### I bob. KIRISH (2 soat)

**Geografiya fani haqida dastlabki tushuncha.** Geografiya, uning o'rganish obyekti va predmeti, tarmoqlari haqida tushuncha. Geografiya fanining tabiatni bilish, undan foydalanish, muhofaza qilishdagi ahamiyati. "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" nimani o'rganadi?

**Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi.** Geografiya fanining paydo bo'lishi. Eratosfen. Ptolemey. Vatandoshlarimiz Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xisrov, Zahiriddin Muhammad Bobur tadqiqotlari, tuzgan xaritalari. Buyuk geografik kashfiyotlar: X. Kolumb, A. Vespuchchi, V. da Gama, F. Magellan, V.Yanszon, F. Bellinsgauzen va M.Lazarevlarning sayohat hamda geografik kashfiyotlari. Hozirgi zamon geografiyasi nimani o'rganadi?

#### II bob. GEOGRAFIK XARITALAR (5 soat)

##### **Globus va geografik xaritalar.**

Globus – Yer sharining modeli. Geografik xaritalarda yer yuzasining tasvirlanishi. Xaritalarda turli kattalikdagi hududlarning tasvirlanishi. Geografik xaritalarning asosiy 2 ta turi – tabiiy va siyosiy xaritalar. Ulardagi shartli belgilar. Yozuvsiz xaritalar. Geografik atlaslar.

##### **Geografik koordinatalar.**

Ekvator va parallellar. Meridianlar, bosh meridian. Daraja to'ri. Geografik kenglik va geografik uzunlikning mohiyati, ularni aniqlash tartibi.

##### **Azimut. Masshtab.**

Azimut. Ufq tomonlarining azimuti. Masshtab va uning turlari.

##### **Amaliy mashg'ulot.**

Xaritada masshtab yordamida masofani o'lchash. Geografik koordinatalarni xaritadan daraja to'ri yordamida aniqlash - Toshkent, Nyu-York, Kanberra va Rio-de-Janeyro shaharlari koordinatalarini yarim sharlar tabiiy xaritasidan aniqlash.

##### **Nazorat ishi.**

#### III bob. GEOGRAFIK QOBIQ (7 soat)

**Geografik qobiq va uning rivojlanish bosqichlari.** Yer qobiqlari. Geografik qobiqning tarkibi, muhim xususiyatlari. Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari: nobiogen, biogen, antropogen bosqichlar. Geoxronologik jadval haqida dastlabki tushuncha.



**Litosfera va uning harakatlari.** Litosfera va Yer po'sti tushunchalari, qalinligi. Yer po'stining kontinental (materik) va okean tiplari. Litosfera plitalari va ularning harakatlari. Litosfera plitalarining harakat mexanizmi. Platforma va geosinklinallar. Yer po'stining tektonik xaritasi. Geologik o'tmishdagi materiklar va okeanlar.

**Iqlim.** Iqlim tushunchasi. Iqlimni hosil qiluvchi omillar: geografik kenglik, havo massalari (ekvatorial, tropik, mo'tadil va qutbiy), relyef, yer yuzasi holati, okean oqimlari.

**Yerning iqlim mintaqalari.** Iqlim mintaqalari, ularning shakllanish sabablari: issiqlikning yer yuzida notekis taqsimlanishi va havo massalarining xilma-xilligi. Asosiy va oraliq iqlim mintaqalarining xususiyatlari.

**Tabiat komplekslari (landshaftlar).** Tabiat komponentlari, tabiat komplekslari (landshaftlar). Kenglik va uzunlik bo'yicha tabiat komplekslarining almashinishi. Tog' va okeanlarda tabiat komplekslarining almashinishi.

**Yer yuzi aholisi, irqlar.** Yer yuzi aholisi soni va uning o'sishi. Aholining joylanish xususiyatlari, tabiiy sharoitning unga ta'siri. Insoniyat irqlari haqida tushuncha. Antropogen landschaftlar.

**Nazorat ishi.**

#### **IV bob. DUNYO OKEANI (5 soat)**

**Dunyo okeani va uning qismlari.** Dunyo okeani ta'rifi. Dunyo okeani qismlarga bo'linishi haqidagi fikrlar: 3ta – Tinch, Atlantika, Hind okeanlari; 4ta - Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz okeanlari; 5ta - Tinch, Atlantika, Hind, Shimoliy Muz, Janubiy okeanlar. Dunyo okeani dengizlari, qo'ltiq, bo'g'izlari. Dunyo okeanining o'rganilish tarixi.

**Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi va relyefi.** Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi, okean tubi relyefi. Materik sayozligi (shelf), materik yonbag'ri (batial), okean tubi (abissal), cho'kmalar.

**Okean suvining xususiyatlari.**

Okean suvining harorati, uning kenglik va chuqurlik bo'yicha o'zgarishi. Okean suvlarining sho'rliigi, eng sho'r va chuchuk dengizlar. Okean oqimlari. Sovuq va iliq oqimlar. Qalqish, to'lqinlar.

**Okean boyliklari, ulardan foydalanish va muhofaza qilish.** Dunyo okeanining boyliklari va ulardan foydalanish. Okeanning biologik, kimyoviy, ma'danli va yoqilg'i-energetika resurslari, ularning tarqalishi va foydalanish. Dengiz transporti, yirik portlar va shaharlar. Dengiz turizmi. Dunyo okeanining ifloslanishi, uni muhofaza qilish.

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.



## V bob. MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIATI

(49 soat)

### AFRIKA MATERIGI

(13 soat)

**Afrika materigining geografik o'rne, o'rganilish tarixi.** Asosiy xususiyatlari, geografik o'rne, chekka nuqtalari, tabiatini o'rganish tarixi. Afrika qadimgi sivilizatsiya markazi. Ibn Battuta, B. Dias, Vasko da Gama, D. Livingston, G.M.Stenli, V.Yunker, N.I. Vavilov tadqiqotlari va sayohat yo'nalishlari.

**Geologik tuzilishi, relyefi va foydali qazilmalari.** Geologik tuzilishi, platforma va quruqlik yuzasidagi eng yirik yer yorig'i. Relyefi. "Past" va "Baland" Afrika. Foydali qazilmalarning tog' jinslari va tektonik tuzilmalar bilan bog'liqligi.

**Materik iqlimining xususiyatlari. Iqlim mintaqalari.** Iqlimi: tarkib topishi va xususiyatlari. Eng issiq materik. Iqlimiga ta'sir etuvchi omillar. Iqlim mintaqalari.

**Afrika materigining ichki suvlari.** Ichki suvlari. Daryo va ko'llari. Nil, Kongo, Niger, Zambezi, Senegal, Oranj daryolari. Afrika ko'llari: Viktoriya, Tanganika, Nyasa, Chad. Ichki suvlarining havzalar bo'yicha taqsimoti: Atlantika, Hind va berk havza suvlari.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Afrikaning geografik o'rne, o'rganilish tarixi, relyefi, iqlimi va ichki suvlariga doir amaliy topshiriqlarni bajarish.

#### Nazorat ishi.

**Materikning tabiat zonalari.** Ekvatorial o'rmonlar va savannalar, tropik cho'llar va subtropiklar tabiati. Tabiat zonalarining geografik tarqalishi, xususiyatlari, tuproq, o'simlik va hayvonot olami.

**Tabiiy geografik o'lkalari. Materik tabiatiga insonning ta'siri.** Afrikaning tabiiy sharoitiga ko'ra tabiiy geografik o'lkalarga bo'linishi. Shimoliy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika. Aholisi soni va joylashuvi. Tabiatiga insonning ta'siri, ekologik muammolari, tabiatini muhofaza qilish. Milliy bog'lari, qo'riqxonalari.

**Atlantika okeani.** Asosiy xususiyatlari, geografik o'rne, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho'rliigi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari, insonning xo'jalik faoliyati, ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish.

**Hind okeani.** Asosiy xususiyatlari, geografik o'rne, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho'rliigi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari, insonning xo'jalik faoliyati, ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Afrika



materigining tabiat zonalari, Atlantika va Hind okeanlar suvlarining xususiyatlariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

### **Nazorat ishi.**

**Umumlashtiruvchi dars.** O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

## **AVSTRALIYA VA OKEANIYA**

**(7 soat)**

**Avstraliyaning geografik o‘rni, o‘rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi.** Avstraliyaning geografik o‘rni, tabiatining asosiy xususiyatlari, o‘rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relyefi, tog‘ va tekisliklari, eng baland va past joylari.

**Iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalari.** Avstraliyaning iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari. Ichki suvlari, yer usti va yer osti suvlari. Tabiat zonalari, tabiiy geografik o‘lkalari.

**Materik aholisi va uning tabiatga ta’siri.** Avstraliya aholisi soni va joylashuvi. Aholisining irqiy tarkibi, aborigenlar. Tabiatiga insonning ta’siri, antropogen landshaftlar, ekologik muammolari, tabiatini muhofaza qilish.

**Umumlashtiruvchi dars.** O‘tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

**Tinch okean.** Asosiy xususiyatlari, geografik o‘rni, o‘rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho‘rligi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari, insonning xo‘jalik faoliyati, ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish.

**Okeaniya.** Okeaniyaning geografik o‘rni. Orollarning kelib chiqishiga ko‘ra turlari. Melaneziya, Mikroneziya va Polineziyaga bo‘linishi. Geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi. Iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi. Aholisi va uning yashash tarzi.

**Amaliy mashg‘ulot.** O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Avstraliya, Okeaniya va Tinch okean tabiatiga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

## **ANTARKTIDA MATERIGI**

**(3 soat)**

**Geografik o‘rni, o‘rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi.** Antarktidaning asosiy xususiyatlari, geografik o‘rni. Antarktida va Antarktika atamaları, ularning farqlari. Antarktidaning o‘rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Muz osti relyefi.

**Iqlimi va tabiat komplekslari.** Iqlimi, organik dunyosi. Antarktida iqlimi, sayyoramizning “sovuqlik qutbi”. Muz qoplami. “Antarktida vohalari”.



Organik dunyosi. Antarktida - pingvinlar vatani. Materikka tutash dengizlardagi organizmlar. Ekologik muammolari.

**Nazorat ishi.**

## **JANUBIY AMERIKA MATERIGI**

**(6 soat)**

**Geografik o'рни, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi.** Materikning geografik o'рни va tabiatining asosiy xususiyatlari, kashf etilishi, o'rganilish tarixi. Materikning paydo bo'lishi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi: tog'lar va tekisliklar, ularning geografik tarqalishi.

**Iqlimi va ichki suvlari.** Janubiy Amerikaning iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, havo harorati, yog'in-sochinlar. Ichki suvlari. Asosiy daryolari: Amazonka, Parana, Orinoko va ko'llari: Marakaybo, Titikaka.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Antarktida va Janubiy Amerikaning geografik o'рни, o'rganilish tarixi, relyefi, iqlimi va ichki suvlariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**Janubiy Amerika tabiat zonalari va balandlik mintaqalari.** Tekislikdagi tabiat zonalarining va And tog'larining o'simlik va hayvonot olami.

**Janubiy Amerikaning tabiiy geografik o'lkalari. Aholisi va uning tabiatga ta'siri.** Tabiiy geografik o'lkalari. Relyefiga ko'ra tabiiy geografik o'lkalarga bo'linishi: tog'li G'arb va tekislikli Sharq. Aholi soni, joylashishi. Tabiatiga insonning ta'siri, antropogen landshaftlar, ekologik muammolari, tabiatini muhofaza qilish. Milliy bog' va qo'riqxonalari.

**Nazorat ishi.**

## **SHIMOLIY AMERIKA MATERIGI**

**(8 soat)**

**Geografik o'рни, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi.** Materikning geografik o'рни va tabiatining asosiy xususiyatlari, o'rganilish tarixi. Materikning paydo bo'lishi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi: tog'lar va tekisliklar, ularning geografik tarqalishi.

**Shimoliy Amerika iqlimi va ichki suvlari.** Iqlimi, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, havo harorati, yog'in-sochinlar. Ichki suvlari. Daryolarning okean havzalariga tegishliligi. Missisipi, Makkenzi daryolari. Buyuk ko'llar tizimi va boshqa yirik ko'llar. Niagara sharsharasi.

**Shimoliy Amerika tabiat zonalari va balandlik mintaqalari.** Tabiat zonalari va balandlik mintaqalari. Tabiat zonalarining va Kordilyera tog'larining o'simlik va hayvonot olami.





**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Shimoliy Amerikaning geografik o'rni, o'rganilish tarixi, relyefi, iqlimi va ichki suvlari, Janubiy va Shimoliy Amerikaning tabiat zonalariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**Tabiiy geografik o'lkalari va aholisining tabiatga ta'siri.** Tabiiy geografik o'lkalari. Tabiiy geografik o'lkalarni ajratishga asos bo'lgan sabablar (omillar). Sharq - tekislik o'lkasi va g'arb tog'li o'lka, ularning tabiati. Aholisining soni, joylashishi. Tabiatiga insonning ta'siri, antropogen landshaftlar, ekologik muammolari, tabiatini muhofaza qilish. Milliy bog' va qo'riqxonalari.

**Shimoliy Muz okeani.** Asosiy xususiyatlari, geografik o'rni, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, okean tubi relyefi, suvining harorati va sho'rliigi, oqimlari, organik dunyosi, iqlim mintaqalari, insonning xo'jalik faoliyati, ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish.

**Nazorat ishi.**

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

## YEVROSIYO MATERIGI (12 soat)

**Yevrosiyoning geografik o'rni, o'rganilish tarixi.** Yevrosiyoning asosiy xususiyatlari, tabiiy geografik o'rni, chekka nuqtalari. Yevropa va Osiyo qit'alari. O'rganilish tarixi. Marko Polo, Afanasiy Nikitin, Nikolay Prjevalskiy sayohatlari.

**Geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relyefi.** Geologik tuzilish va foydali qazilmalari. Relyefi. Materikning paydo bo'lishi, Yevrosiyoning geologik tuzilishi, platformalar va geosinklinal mintaqalar. Relyefi, tog'lar, Alp-Himolay va Tinch okean tog'li mintaqalar. Tekisliklar va ularning platformalarga mos kelishi. Foydali qazilmalari, yoqilg'i va rudali qazilmalarning yirik zahiralari.

**Yevrosiyo iqlimi.** Iqlimi. Materik iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar.

**Yevrosiyoning iqlim mintaqalari.** Arktika, subarktika va mo'tadil iqlim mintaqalari. Subtropik, tropik, subekvatorial va ekvatorial iqlim mintaqalari.

**Yevrosiyoning ichki suvlari.** Ichki suvlari. Ichki suvlarining tarqalishi, daryolari, ko'llari, ko'p yillik muzloq erlar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Yevrosiyoning geografik o'rni, o'rganilish tarixi, relyefi, iqlimi va ichki suvlariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.



**Yevrosiyoning tabiat zonalari.** Arktika mintaqasining tabiat zonalari. Subarktika mintaqasining tabiat zonalari. Moʻtadil mintaqaning tabiat zonalari. Subtropik mintaqaning tabiat zonalari. Tropik mintaqaning tabiat zonalari. Subekvatoril mintaqaning tabiat zonalari. Ekvatorial mintaqaning tabiat zonalari.

**Yevrosiyo aholisi va uning tabiatga taʼsiri.** Aholi soni va uning hududiy tarqalishi, irqi, xalqlari. Hududi jihatidan yirik va kichik davlatlari. Aholi soni jihatidan yetakchi davlatlari. Materik tabiatiga insonning taʼsiri. Antropogen landshaftlar, ekologik muammolari, tabiatni muhofaza qilish, milliy bogʻlar va qoʻriqxonalar.

**Yevrosiyo hududining tabiiy geografik oʻlkalarga boʻlinishi.** Yevrosiyo hududining yirik tabiiy geografik oʻlkalarga boʻlinishi, buning mezonlari. Yevrosiyo tabiiy geografik oʻlkalarga boʻlinishining sxematik xaritasi.

**Amaliy mashgʻulot.** Oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy koʻnikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: Yevrosiyoning tabiat zonalari, aholisi va tabiiy geografik oʻlkalarga oid xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

#### **Nazorat ishi.**

**Umumlashtiruvchi dars.** Oʻtilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

### **MAVZUIY REJALASHTIRISH**

T.r.	Boʻlim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashgʻulot va takrorlash
1.	Kirish	2	2	-
2.	Geografik xaritalar	5	3	2
3.	Geografik qobiq	7	6	1
4.	Dunyo okeani	5	4	1
5.	Materiklar va okeanlar tabiati	49	32	17
<b>Jami</b>		<b>68</b>	<b>47</b>	<b>21</b>



## VIII SINIF

### GEOGRAFIYA (O'RTA OSIYO VA O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI)

#### I bo'lim. O'RTA OSIYO TABIIY GEOGRAFIYASI

#### I bob. O'RTA OSIYONING GEOGRAFIK O'RNI, CHEGARALARI VA TABIIY GEOGRAFIK O'LKA SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (4 soat)

**O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi haqida tushuncha.** Kursning mazmuni, ilmiy, ma'naviy va amaliy ahamiyati. O'rta Osiyo Yevrosiyoning tabiiy o'lkalaridan biri ekanligi. O'lka hududining ekvator, bosh meridian, okeanlarga nisbatan geografik joylashuvi. Tabiiy geografik chegaralar o'tkazish prinsiplari. Shimoli-g'arbiy va shimoliy chegaralarning xususiyatlari. O'lkaning Sharqiy va janubiy chegarasining tog'larning suvayirg'ichlaridan, g'arbiy chegarasining dengiz qirg'og'idan o'tkazilishi.

**O'rta Osiyo tabiatining o'ziga xos xususiyatlari.** Tabiiy geografik o'lka sifatida o'ziga xos xususiyatlari: okeanlardan uzoqda, eng katta materik o'rtasida, mo'tadil va subtropik kengliklarda joylashganligi, undan kelib chiqadigan oqibatlar, ekologik sharoiti jihatdan ham berk havza ekani, relyefining o'ziga xosligi va uning tabiiy geografik oqibatlari. O'rta Osiyoning jahon fani va ma'naviyatiga hissa qo'shgan buyuk allomalar vatani ekanligi.

**O'rta Osiyoning geografik o'rganilish tarixi.** O'rta Osiyo juda qadimiy madaniyat markazlaridan biri ekanligi. O'lkaning geografik o'rganilish tarixi bosqichlari: "Buyuk ipak yo'li" tashkil bo'lguncha, "Buyuk ipak yo'li" davri, Rossiyaning O'rta Osiyoni istilo qilgan va istilodan keyingi davrlar, sovet davri va hozirgi davr. Uning qisqacha tahlili. O'rta Osiyo va O'zbekistonni geografik o'rganishda xitoy, arab tadqiqotchilari, mahalliy olimlar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy va boshqa olimlarning xizmatlari. Rus harbiylari va olimlarining geografik ishlari. Geograf olimlar – N.A. Kogay, L.N. Babushkin, K. Zokirov, M. Qoriev, N. Dolimov, H. Hasanov, Z. Akromov, A. Rafiqov va boshqalarning ishlari. Hozirgi davrdagi geografik tadqiqotlar.

**O'rta Osiyo siyosiy xaritasi va aholisi.** O'rta Osiyo siyosiy-ma'muriy xaritasi, o'lka hududida butunligicha va qisman joylashgan davlatlar. Aholining soni (davlatlar bo'yicha) va zichligi. O'rta Osiyoda aholining hududiy joylashishida o'ziga xos xususiyatlar. Aholisining ko'p millatli: o'zbek, qozoq, turkman, qirg'iz, uyg'ur, tojik, afg'on, fors, rus, ukrain, koreyslar va boshqalar yashashi.



## II bob. GEOGRAFIK XARITALAR. VAQT HISOBI (7 soat)

**Xarita andozalari (proeksiyalar) haqida tushuncha.** Xaritalardagi xatoliklar va kartografik andozalar (proeksiyalar) haqida umumiy tushuncha. Azimutal, konusli, silindrli, turli andozalardagi xatoliklar.

**Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari.** Geografik xaritalar, aero va kosmik fotosuratlar, joy plani, ular orasidagi farqlar. Geografik xaritalarning mashtabi va mazmuniga ko'ra tasniflanishi. Kartografik tasvirlash usullari.

**Topografik xaritalar.** Topografik xaritalar haqida tushuncha, ularning geografik xaritalardan farqi. Topografik xaritalarning shartli belgilari. Topografik xaritalarda relyefni tasvirlash usullari, gorizontallarni o'qish, ular yordamida relyef shakllari va elementlarini aniqlash. Topografik xaritalarning ahamiyati.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: xaritalardagi masofalarning haqiqiy, ya'ni joydagi qiymatlarini mashtab yordamida aniqlash. Joydagi masofalarning nisbatini hisoblab, xarita mashtabini aniqlash. Gorizontallar bilan ishlash.

**Nazorat ishi.**

**Vaqt o'lchovi, soat mintaqalari. Taqvimlar.** Mahalliy vaqt. Dunyoning soat mintaqalariga bo'linishi. Mintaqa vaqti va uning farqlanishi. Taqvim tushunchasi. Grigoriy taqvimi. Hijriy taqvim.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan ishlash: soat mintaqalariga oid topshiriqlarni bajarish.

## III bob. O'RTA OSIYONING GEOLOGIK TUZILISHI, FOYDALI QAZILMALARI VA RELYEFI (5 soat)

**Geologik vaqt hisobi.** Geologik vaqt hisobi. Geologik sana. Tog' jinslarining nisbiy yoshi, tog' jinslarining mutlaq yoshi. Geoxronologik jadval.

**O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi va geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari.** O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi va geologik tuzilishi. Turli eralarda sodir bo'lgan tektonik jarayonlar, dengiz bosishi va chekinishlari. Ularning ta'sirida vujudga kelgan tog'lar, platolar, tekisliklar. Geologik tuzilishi. Zilzilalar. Foydali qazilmalar, ularning turlari va joylashish qonuniyatlari. Eng muhim foydali qazilma konlari.

**Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari.** Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari. Kaledon, gersin, alp burmalanishlarida hosil bo'lgan tog'lar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, yirik tekisliklar, qirlar, tog' oralig'idagi vodiylar. Inson xo'jalik faoliyatining Yer yuzasi tuzilishiga bog'liqligi. Insonning relyefga ta'siri.

**Nazorat ishi.**



**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

#### **IV bob. O'RTA OSIYO IQLIMI** **(3 soat)**

**O'rta Osiyo iqlimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Havo massalari, siklon va antitsiklonlar.** Iqlimga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. O'lkaning geografik o'rni va quyosh radiatsiyasi taqsimlanishining O'rta Osiyo iqlimi hosil bo'lishidagi ahamiyati. To'g'ri, yalpi va tarqoq radiatsiya. O'rta Osiyo hududida atmosfera sirkulyasiyasi, havo massalari, atmosfera frontlari, siklon va antitsiklonlar. Siklon va antitsiklonlarda ob-havo.

**O'rta Osiyo iqlimining tavsifi.** O'rta Osiyo iqlimining umumiy xususiyatlari. Tekisliklar iqlimi va uning umumiy tavsifi. Turli fasllardagi ob-havo. Iqlim elementlarning hududiy taqsimlanishi. Relyef va yer usti tuzilishining o'lka iqlimiga ta'siri, tog'li hududlar iqlimining o'ziga xos xususiyatlari.

**O'rta Osiyodagi iqlimiy tafovutlar.** O'rta Osiyoning iqlimiy mintaqalanishi. Turon va Qozog'iston iqlimlari ta'rifi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. O'rta Osiyo tog'larining iqlimi.

#### **V bob. O'RTA OSIYONING SUVLARI** **(4 soat)**

**O'rta Osiyo daryolari.** O'lka daryolari. O'rta Osiyodagi daryolarning to'yinishi turlari va gidrologik rejimi, to'yinish va rejim orasidagi bog'liqlik, ularning daryo havzasining o'rtacha balandiligiga bog'liqligi. Daryolarning ishi. Amudaryo, Sirdaryo, Ili daryolari.

**Ko'llari va suv omborlari. Yer osti suvlari.** O'rta Osiyo ko'llari va yYer osti suvlari. Ko'llarning hududiy taqsimlanishida o'ziga xos xususiyatlar. Ko'llarning hosil bo'lishiga ko'ra turlari. Ko'llardan xalq xo'jaligida foydalanish. Ko'llarda ro'y berayotgan antropogen o'zgarishlar. Orol muammosi. O'lkamizdagi suv omborlari va kanallar. Ularning atrof-muhit ekologik holatga ta'siri. Eng yirik suv omborlari va kanallar tavsifi. Boshqa sug'orish inshootlari, sardobalar. O'rta Osiyo yYer osti suvlari. YYer osti suvlarining tarkib topish sharoiti. Mineral, termal, shifobaxsh suvlar, grunt suvlarining atrof-muhit ekologik holatiga ta'siri.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: O'rta Osiyoning relyefi, iqlimi va suvlariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**Nazorat ishi.**



## VI bob. O'RTA OSIYO TUPROQLARI (2 soat)

**Tuproqlar haqida tushuncha.** Tuproq hosil qiluvchi omillar, tuproqning tuzilishi, mexanik tarkibi, unumdorligi. Tuproq kesmasi. Tuproqning tarkibiy qismlari. Ona jinsi, organik tarkibi, chirindi, tuproq eritmasi. Tabiiy va madaniy tuproqlar.

**O'rta Osiyo tuproqlari.** Tuproq zonalari. Dasht, chalacho'l, cho'l, adir, tog', yaylov tuproqlari. Ularning xususiyatlari, turlari. Tuproqlardan foydalanish. Tuproq meliorativ holatini yaxshilash. O'z joyining tuproqlari va ulardan foydalanish holati.

## VII bob. O'RTA OSIYONING TABIIY ZONALARI VA TABIIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRILISHI (9 soat)

**O'rta Osiyo tekisliklaridagi tabiiy zonalari.** O'rta Osiyoda tekislik tabiiy komplekslarining geografik kenglikka qarab o'zgarishi. O'rta Osiyo tekislik qismining tabiiy zonalari: dasht, chala cho'l, cho'l – Qozog'iston va Turon cho'llari.

**O'rta Osiyo tog'lari tabiati.** O'rta Osiyo tog'laridagi balandlik mintaqalari.

**Tabiiy geografik rayonlashtirish haqida tushuncha.** Tabiiy geografik rayonlashtirishning ahamiyati, prinsiplari, tasnifiy birliklari. Turon, Markaziy Qozog'iston va Jung'oriya-Tyanshan provinsiyalari, ularning chegaralari va landshaft jihatidan farqlanishi.

### Nazorat ishi.

**Turon tabiiy geografik provinsiyasi.** Turon provinsiyasi tabiatiga qisqacha tavsif. Tog'oldi-tog' kichik provinsiyasi va tekislik kichik provinsiyasi. Tabiiy geografik okruglar.

**Markaziy Qozog'iston, Jung'oriya-Tyanshan tabiiy geografik provinsiyalari.** Provinsiyalar tabiatiga qisqacha tavsif. Jung'oriya-Tyanshan tabiiy geografik provinsiya tog'oldi-tog' va tekislik kichik provinsiyalariga bo'linishi. Tabiiy geografik okruglar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: O'rta Osiyoning tuproqlari va tabiiy geografik rayonlashtirilishiga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**O'rta Osiyoning ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish.** Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar inson hayotining manbai ekani. O'rta Osiyoda tabiiy muhitni ifloslantiruvchi antropogen omillar. Tabiat ifloslanishining aholi va xo'jalik uchun salbiy oqibatlar. O'lkada suvni muhofaza qilishning zarurligi. Orol muammosi. O'rta Osiyo hududi tabiiy geografik jihatdan bir butunligining tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishdagi ahamiyati. Kamayib ketayotgan o'simlik va hayvonlar, turi, soni



ularni va noyob tabiat yodgorliklarini saqlab qolishda O'rta Osiyodagi qo'riqxonalar, milliy bog' va buyurtmaxonalarning ahamiyati.

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

## **II bo'lim. O'ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI**

### **VIII bob. O'ZBEKISTON TABIATINING UMUMIY TAVSIFI**

**(8 soat)**

**O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va chegaralari.** O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni, chegaralari, maydoni, aholisi, ma'muriy-hududiy bo'linishi.

**O'zbekistonning relyefi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari.** O'zbekiston relyefining asosiy xususiyatlari. Tekisliklar, tog' tizmalari, tog' oraliq botiqlari. Tektonik harakatlar, seysmik faol hududlar, zilzilalar. Asosiy foydali qazilmalar va ularning yirik konlari.

**O'zbekiston iqlimi.** O'zbekiston iqlimining umumiy tavsifi. Iqlim hosil qiluvchi omillar, haroratning taqsimlanishi, yog'inlarning taqsimlanishi, shamollar.

**Yil fasllari. Iqlim resurslari.** Yil fasllari va ularning tavsifi. Iqlim elementlarining aholi yashash sharoiti, qishloq xo'jaligi, rekreatsiya sohasiga ta'siri. Atmosferani muhofaza qilish.

**O'zbekistonning ichki suvlari.** O'zbekistonning daryolari, ularning tarqalishi, to'yinishi, ayrim yirik daryolar (Amudaryo va Sirdaryodan boshqa). O'zbekistonning ko'llari. Aydar-Arnasoy ko'llari. Yer osti suvlari. Suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish.

**Nazorat ishi.**

**Tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami.** Cho'l, adir, tog' va yaylov balandlik mintaqalarining tuproqlari, o'simlik va hayvonot olami.

**O'zbekistonning o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish. Dorivor o'simliklari.** O'zbekiston o'simlik va hayvonot olamining xilmaxilligi. O'zbekiston "Qizil kitob"i. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Dorivor o'simliklar, ularning hududiy tarqalishi. Dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: O'zi yashaydigan hududdagi dorivor o'simliklarni ularning tarqalishi, oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan vazifalar haqida. O'zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan o'simlik va hayvonlar jadvalini to'ldirish.



## **IX bob. O'ZBEKISTONNING TABIIY GEOGRAFIK OKRUGLARI TAVSIFI** **(26 soat)**

**O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirilishi.** Yirik tabiiy geografik kompleks hisoblangan tekislik va tog'oldi-tog' kichik provinsiyalariga bo'linishi. Ularning ham, o'z navbatida, tabiiy geografik okruglarga bo'linishi. Tekislik tabiiy geografik kichik provinsiyasi Ustyurt, Quyi Amudaryo, Orol, Qizilqum va Quyi Zarafshon tabiiy geografik okruglariga; Tog'oldi-tog' kichik provinsiyasi esa, Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, O'rta Zarafshon, Mirzacho'l, Qashqadaryo, Surxondaryo tabiiy geografik okruglariga bo'linishi.

**Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni, chegaralari va umumiy tavsifi. Yer yuzasining tuzilishi, geologik taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Gersin va alp burmalanishida hosil bo'lgan relyef shakllari. Hududini dengiz bosishi va chekinganligi. Zilzilalar. Foydali qazilmalari.

**Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. Harorat va issiqlikning taqsimlanishi, shamollari. Ichki suvlari, daryolar, ularning to'yinish manbalari. Suv omborlari va kanallari, suv resurslaridan foydalanish. Yer osti suvlari. Tabiiy va antropogen landshaftlarining balandlik bilan o'zgarishi. Dorivor o'simliklari. Ekologik muammolari. Chotqol davlat qo'riqxonasi, Ugom-Chotqol Milliy bog'i, Ugom-Chotqol davlat biosfera rezervati.

**Farg'ona tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni, chegaralari va umumiy tavsifi. Geologik tuzilishining asosiy xususiyatlari. Vodiy va uni o'rab olgan tog'larning gersin burmalanishida ko'tarilishi, so'ngra peneplenlashishi, alp bosqichida qayta ko'tarilishi va adirlarning vujudga kelishi. Zilzilalar. Asosiy foydali qazilmalari. Yer usti tuzilishi. Okrugdagi vodiy, uning atrofidagi adir va tog'larning asosiy relyef shakllari.

**Farg'ona tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Iqlimining o'ziga xosligi va iqlim hosil qiluvchi omillar. Bekobod va Qo'qon shamollarning vujudga kelish sabablari. Asosiy daryo va soylari, ularning to'yinish manbalari. Yer osti suvlari. Suv omborlari va kanallari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi, ularning balandlik mintaqalanishi. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari.

### **Nazorat ishi.**

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Chirchiq-Ohangaron va Farg'ona tabiiy geografik okruglarining relyefi, iqlimi va suvlariga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**Mirzacho'l tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni, chegaralari. Geologik tuzilishi. Foydali qazilmalari. Yer usti tuzilishi. Tekislik qismining yer usti tuzilishi. Janubdagi tog'lar, ular relyefining asosiy xususiyatlari.





Iqlimining o'ziga xos tomonlari va uning shakllanishida yer usti tuzilishining o'rne. Hudud bo'yicha issiqlik va yog'inlarning taqsimlanishi. Shamollari. Daryo va soylari hamda yer osti suvlari. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining balandlik mintaqalanishi. Tuproqlarining sho'rlanishi sabablari. Tabiatini muhofaza qilish. Dorivor o'simliklari. Nurota tog'-yong'oq davlat qo'riqxonasi. Zomin davlat milliy bog'i.

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

**O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. Geologik tuzilishi. Zarafshon vodiysini o'rab turgan tog'lar hosil bo'lishining asosiy bosqichlari. Zarafshon vodiysining antropogen davrdagi tarixi. Zilzilalari. Foydali qazilma boyliklari. Zarafshon vodiysi va uni o'rab turgan tog'larning yer usti tuzilishi. Zarafshon tog' oraliq botig'ining yer usti tuzilishi va relyefi.

**O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. Iqlimiga okrugini shimol tomondan o'rab olgan Turkiston-Nurota-Oqtog'larning ta'siri. Issiqlik va namlikning g'arbdan sharq tomon, pastdan yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarishi. Zarafshon daryosi va uning gidrologik xususiyatlari. Vodiy atrofidagi tog'lardan boshlanuvchi daryo va soylar. Yer osti suvlari va suv omborlari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining balandlik mintaqalanishi. Tuproqlarning eroziyaga uchrashi. To'qay o'simlik va hayvonlari. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish. Zarafshon vodiy-to'qay davlat qo'riqxonasi.

**Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni, chegaralari. Geologik tuzilishi. Tog' tizmalari rivojlanishining asosiy bosqichlari. Tekislik qismini sharqdan va shimoldan o'rab olgan tog'lari. Ularning relyef shakllari. Okrug adirlari va ularning Farg'ona adirlaridan farqi. Tekislik qismi Yer yuzasining tuzilishi. Qarshi cho'li.

**Qashqadaryo tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Iqlimining asosiy xususiyatlari. Iqlim elementlarining xususiyatlari va hududiy tafovutlari. Daryolari, soylari, kanallari va suv omborlari. Cho'l, adir, tog', yaylov mintaqalari va ularning tuproq-o'simlik qoplami hamda hayvonot dunyosi. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari. Tabiatini muhofaza qilish. Kitob geologik va Hisor tog'-o'rmon qo'riqxonalari, Kitob kenglik stansiyasi, Maydanak observatoriyasi.

**Surxondaryo tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. Yer yuzasining geologik tuzilishi va rivojlanish bosqichlari. Zilzilalar. Qazilma boyliklari. Tog' tizmalari va ularga tavsif. Surxon-SHerobod botig'i, u yerdagi tepaliklar, qumliklar, relyefning boshqa shakllari.



**Surxondaryo tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Okrug O'zbekistonning eng janubida joylashganligi, atrofini sovuq havo oqimidan to'sib turuvchi tog'lar tufayli quruq subtropik iqlimning vujudga kelganligi. Iqlim elementlarining xususiyatlari va hududiy tafovutlari. Afg'on shamoli va uning vujudga kelish sabablari. Asosiy daryolari, ularning to'yinishi va suv rejimi. Yer osti suvlari, suv omborlari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining balandlik mintaqalanishi. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolari, Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi ekologik vaziyat. Surxon davlat qo'riqxonasi. Dorivor o'simliklar

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Mirzacho'l, O'rta Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari tabiatiga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

#### **Nazorat ishi.**

**Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi. Iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Geografik o'rni va chegaralari. Geologik tuzilishi. O'lkaning kaynozoy erasidagi rivojlanishi, antropogen davrdagi paleogeografiyasi. Zilzilalari. Foydali qazilmalari. O'lkaning yer usti tuzilishi. Buxoro va Qorako'l vohalari relyefi.

**Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugining iqlimi va suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi.** Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. Iqlim elementlarining hududiy o'zgarishi. Zarafshon daryosi va uning gidrologik xususiyatlari. Undan boshlanuvchi kanallar. Suv omborlari. Yer osti suvlari. Tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari, Buxoro, Qorako'l vohalarida tuproqlarning sho'rlanish sabablari. To'qay o'simlik va hayvonlari, ularni muhofaza qilish. "Jayron" Respublika ekomarkazi.

**Qizilqum tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. Relyefining taraqqiyot tarixi. Yer usti tuzilishining o'ziga xos tomonlari. Eng muhim relyef shakllari: qoldiq tog'lari, botiqlari, qum rel'ef shakllari. Foydali qazilmalari. Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. Iqlim elementlarining xususiyatlari va hududiy farqlanishi. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi. O'simlik va hayvonot dunyosining iqlimiy sharoitga moslashuvi. Qum va to'qay landshafti. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari. O'simlik va hayvonlarning muhofazasida Qizilqum qo'riqxonasining ahamiyati.

**Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. Amudaryoning ko'hna (eski) va yangi delta tekisliklarining vujudga kelishi. Okrugning yer usti tuzilishi. Iqlimi va uning shakllanishida yer usti tuzilishining (shimolning ochiqligi tufayli sovuq havo massalarining to'siqsiz va o'zgarishsiz kirishligi) holati. Iqlim elementlarining xususiyatlari va ularning hududiy tarqalishi. Orol suv sathi pasayishining okrug iqlimiga



ta'siri. Amudaryo, uning eski va yangi o'zanlari, asosiy kanallari. Eng muhim ko'llari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. To'qay o'simlik va hayvonlari. Tabiiy va antropogen landshaftlari. Ekologik muammolari, havoning chang-to'zon va tuzlar bilan ifloslanishi, tuproqlarning sho'rlanishi. To'qay landshaftlari va u yerdagi o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish, Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati. Okrugdagi buyurtmaxonalar.

**Orol tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. Orol va Orolbo'yini tabiiy geografik o'rganilish tarixi. Orol dengizi suvi sathining pasayishi hamda Orol va Orolbo'yi muammosining yuzaga kelishi va rivojlanishi. Okrugning yer usti tuzilishi. Iqlimi. Iqlim elementlarining xususiyatlari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Landshaftlari. Havoning chang-to'zon va tuzlar bilan ifloslanishi, tuproqlarning sho'rlanishi. Orol tabiiy geografik okrugi hududidan foydalanish istiqbollari va tabiatini muhofaza qilish muammolari.

**Ustyurt tabiiy geografik okrugi.** Geografik o'rni va chegaralari. O'lka relyefining shakllanish tarixi. Yer yuzasi relyefi: qirlar, tekisliklar, botiqlar va chinklar. Foydali qazilmalari. Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning qishi eng sovuq, yozi issiq hudud ekanligi. Yer osti suvlari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi. Muhofazaga olingan va "O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan hayvon turlari. "Sayg'oqli" kompleks landshaft buyurtmaxonasi.

#### **Nazorat ishi.**

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarni bajarish: Tekislik tabiiy geografik okruglari tabiatiga doir xarita, jadval va diagrammalar bilan ishlash.

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzularning tayanch mazmunini savollarga javob berish va topshiriqlarni bajarish orqali takrorlash va mustahkamlash.

### **MAVZUIY REJALASHTIRISH**

T.r.	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot va takrorlash
1.	O'rta Osiyoning geografik o'rni, chegaralari va tabiiy geografik o'lka sifatida o'ziga xos xususiyatlari	4	4	-
2.	Geografik xaritalar. Vaqt hisobi	7	4	3
3.	O'rta Osiyoning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi	5	3	2
4.	O'rta Osiyo iqlimi	3	3	-
5.	O'rta Osiyoning suvlari	4	2	2



6.	O'rta Osiyo tuproqlari	2	2	-
7.	O'rta Osiyoning tabiat zonalari va tabiiy geografik rayonlashtirilishi	9	6	3
8.	O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi	8	6	2
9.	O'zbekistonning tabiiy geografik okruglari tavsifi	26	18	8
<b>Jami</b>		<b>68</b>	<b>48</b>	<b>20</b>



## IX SINIF

# GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT (O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOYIY GEOGRAFIYASI. IQTISODIYOT ASOSLARI)

### I bob. KIRISH (2 soat)

**Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fan tarmog'i sifatida.** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani, uning obyekti va predmeti, vazifalari, tarmoqlari, beriladigan bilimlar tizimi. Tabiiy geografiya bilan bog'liqligi. Siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar, ularning turlari va shartli belgilari. Ulardan foydalanish.

**Iqtisodiyot haqida tushuncha.** Iqtisodiyot. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlari. Iqtisodiy jarayonning bosqichlari – ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol. Iqtisodiyot fani. Mikro- va makroiqtisodiyot.

### II bob. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI VA MA'MURIY- HUDUDIY TUZILISHI (3 soat)

**O'zbekistonning geografik o'rni.** Mamlakatlarning geografik (tabiiy geografik, iqtisodiy-geografik, siyosiy-geografik) o'rni haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-geografik va siyosiy-geografik o'rni. Chegaralari, chekka nuqtalari, maydoni. Jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, xalqaro tashkilotlariga a'zoligi.

**O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.** Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishining pog'onasimonligi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri. Qishloq tumanlari. Shaharlar va ularning ma'muriy maqomi.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: O'zbekistonning geografik o'rni, chegaralari, chekka nuqtalari, ma'muriy-hududiy tuzilishi haqidagi bilimlarni geografik xarita bilan ishlash yordamida mustahkamlash. Yozuvsiz xaritalarda o'tilgan mavzular yuzasidan amaliy topshiriqlarni bajarish.

### III bob. O'ZBEKISTONNING TABIIY RESURSLARI, AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI (11 soat)

**Ehtiyojlar va resurslar.** Ehtiyojlar va ularning turlari. Ehtiyojlar cheksizligi. Resurslar va ularning turlari. Resurslarning cheklanganligi. Iqtisodiyotning asosiy muammosi.



**Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar.** Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar ta'rifi, ularning aholi turmushi va xo'jalikka ta'siri. Tabiiy resurslarning turlari: mineral, suv, yer, biologik va iqlimiy resurslari. Tugaydigan, tugamaydigan, tiklanadigan, tiklanmaydigan tabiiy resurslar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarini xo'jalik jihatdan balandlik mintaqalari bo'yicha baholash, tegishli mazmunda jadval to'ldirish. O'zbekiston hududidagi balandlik mintaqalarida xo'jalikning o'ziga xos xususiyatlarini, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish muammolarini aniqlash va qiyoslash.

**Nazorat ishi.**

**O'zbekiston aholisi.** O'zbekiston aholisi, tabiiy va mexanik harakati. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, tabiiy ko'payish. Tashqi va ichki migratsiya. Aholi zichligi va joylanish xususiyatlari.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: O'zbekiston hududlarining aholi zichligini hisoblash, tabiiy va mexanik harakati ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha masalalar yechish.

**O'zbekiston aholisining tarkibi.** Mamlakat aholisining jinsiy, yosh bo'yicha tarkibi. Mehnat resurslari va ularning tarkibiy qismlari. Iqtisodiy faol va nafaol aholi. Iqtisodiyotda band aholi va ishsizlar. Aholining milliy va diniy tarkibi.

**Ishsizlik, uning turlari va oqibatlari.** Ishsizlik darajasi va uni hisoblash. Ishsizlikning turlari. Tabiiy ishsizlik va to'la bandlik. Ishsizlik oqibatlari. Mehnat birjalari.

**Aholi manzilgohlari.** Aholi manzilgohlari. Shahar va qishloq aholi manzilgohlarining xususiyatlari. Shahar va shaharchaning ta'riflari. Shahar manzilgohlarining aholi soni bo'yicha tasniflanishi. Urbanizatsiya jarayoni haqida tushuncha.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: aholi tarkibi, hududlarning urbanizatsiya darajasini aniqlash bo'yicha masalalar yechish.

**Nazorat ishi.**

#### **IV bob. BOZOR IQTISODIYOTI ASOSLARI (14 SOAT)**

**Ishlab chiqarish va uning omillari.** Ishlab chiqarish tushunchasi. Ishlab chiqarishning omillari: tabiiy resurs va sharoit, mehnat, kapital, texnologiya. Resurslarni tejash ahamiyati.



**Mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.** Mehnat unumdorligi. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat taqsimoti va uning ahamiyati. Hududiy mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv.

**Ayirboshlash va pul.** Ayirboshlash va uning turlari. Tovar tushunchasi. Pulning tarixiy shakllari. Pulning funksiyalari. Pul massasi.

**Mulk va uning shakllari.** Mulk tushunchasi. Mulk shakllari: xususiy va davlat mulki. Xususiylashtirish. O'zbekistonda xususiylashtirish. Milliylashtirish.

**Bozor.** Bozor tushunchasi. Bozorning turlari. Bozorning vazifalari. Bozorning asosiy qatnashchilari va ulur o'rtasidagi munosabatlar.

**Narx.** Narx tushunchasi. Tannarx va qo'shimcha qiymat.

**Nazorat ishi.**

**Talab va unga ta'sir etuvchi omillar.** Talab. Talab miqdori. Talab qonuni. Talab chizig'i. Narxga bog'liq bo'lmagan omillar. Normal tovarlar. Past tabaqali tovarlar. Bir-birining o'rnini to'ldiruvchi tovarlar. O'zaro bog'liq tovarlar. Talab chizig'ining o'zgarishi.

**Taklif va unga ta'sir etuvchi omillar.** Taklif. Taklif miqdori. Taklif qonuni. Taklif chizig'i. Taklifga ta'sir etuvchi boshqa omillar. Taklifning o'zgarish mexanizmi.

**Tovarning bozor narxi.** Talab va taklifning o'zaro ta'siri. Muvozanat narx va muvozanat miqdor. To'yingan va taqchil bozor. Muvozanatlashgan bozor. Qat'iy narxlar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: Talab va taklif jadvallari orqali muvozanat narxni aniqlash. Grafik usuli orqali muvozanat narxni aniqlash. Talab va taklif funksiyalari orqali muvozanat narxni aniqlash.

**Raqobat va monopoliya.** Raqobat tushunchasi. Raqobat shakllanishi uchun zarur bo'lgan shartlar. Raqobatning bozordagi o'rne va ahamiyati. Monopoliya tushunchasi. Oligopoliya va sof monopoliya. Tabiiy monopoliyalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

**Bozor iqtisodiyoti.**

Ikkita asosiy iqtisodiy tizimlar: bozor va markazlashgan rejali. Bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari va ustunliklari. O'zbekistonda bozor islohotlari.

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzulardagi tayanch tushunchalarini takrorlash va mustahkamlash. Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik)ga yo'naltirilgan va fanlararo bog'liqlikka doir (mantiqiy) savol va topshiriqlar.



## V bob. MILLIY IQTISODIYOTNING TARMOQLARI VA ULARNING GEOGRAFIYASI (27 soat)

**O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi.** Milliy iqtisodiyot tushunchasi. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari haqida tushuncha. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining tarmoq tuzilishi. Davlat statistika hisobi haqida tushuncha.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: yoqilg'i-energetika majmuasi (YEM) tushunchasi, YEM tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni chizmalar tahlili orqali o'rganish. Yoqilg'i turlarining issiqlik berish darajasi, shartli yoqilg'i birliklari, yoqilg'i-energetika balansining diagrammasini tuzishga oid topshiriqlarni bajarish.

**Yoqilg'i sanoati.** O'zbekistonda neft va gazning qazib olinishi miqdori va dinamikasi. Neft va gaz sanoatining asosiy korxonalari, ular joylashgan manzilgoh va hududlar. Neft va gazdan foydalanish. Toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir. O'zbekistondagi ko'mir konlari. Ko'mirdan foydalanish.

**Elektroenergetika.** Elektroenergetika sanoati: issiqlik elektr stansiyalari va markazlari; gidroelektrostansiyalar; atom elektrostansiyalar, noan'anaviy energiya manbalari: shamol, va quyosh elektr stansiyalari. O'zbekiston elektroenergetikasining tarkibi.

### Nazorat ishi.

**Kimyo sanoati.** Kimyo sanoati haqida tushuncha. Asosiy tarmoqlari: tog'-kimyo sanoati, asosiy kimyo (mineral o'g'itlar, soda, sulfat kislotani ishlab chiqarish), organik sintez kimyosi, maishiy kimyo. O'zbekistonda kimyo sanoatining asosiy tarmoq va yirik korxonalari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, asosiy markazlari.

**Metallurgiya sanoati. Qora metallurgiya.** Metallurgiya tushunchasi, uning tarmoqlari. Qora metallurgiya sanoati va uning asosiy mahsulotlari. Qora metallurgiya korxonalarining joylashishidagi omillar (xomashyo va yoqilg'i bazasi). Texnologik bosqichlari (rudani qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va turli qotishmalar ishlab chiqarish). O'zbekiston metallurgiya zavodi (Bekobod) va uning joylashish omillari.

**Rangli metallurgiya.** Rangli metallurgiya, uning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, rangli metallar guruhlarini. Tarkibiy qismlari: rudani qazib olish, boyitish, eritish va qotishmalar ishlab chiqarish. Korxonalarining elektroenergiya va xomashyo manbalariga yaqin joylashtirilishi.

**Mashinasozlik va uning tarmoqlari.** Mashinasozlik mohiyati, vazifasi, tarmoqlar tarkibi. Joylashish omillari: malakali kadrlar, xomashyo, transport va iste'mol omillari. Mashinasozlikning ilm-fan bilan chambarchas bog'liqligi. Mamlakatimizda mashinasozlikning rivojlanishi, undagi tarkibiy o'zgarishlar. Mashinasozlik sanoatidagi qo'shma korxonalar.





**Avtomobilsozlik.** O‘zbekiston avtomobilsozligi. Avtomobilsozlikning asosiy markazlari. Asaka, Samarqand va Xorazm avtomobil zavodlari. Avtomobilsozlikda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish. Avtomobilsozlikning istiqbollari.

**Qurilish materiallari sanoati.** Asosiy mahsulotlari va ularning xomashyosi. O‘zbekiston qurilish sanoatining yirik korxonalari va ularning joylashishi. Mustaqillik yillarida qurilish sanoatining rivojlanishi.

**Sanoat va ekologik muammolar.** Sanoat tarmoqlari bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolar. Sanoat korxonalarini joylashtirishda ekologik omillarni hisobga olish.

**Nazorat ishi.**

**Qishloq xo‘jaligi.** Qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlar tarkibi. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi va ixtisoslashuvining tabiiy sharoitga bog‘liqligi. Qishloq xo‘jaligi erlari va ularning turlari. Melioratsiya haqida tushuncha. Ekstensiv va intensiv qishloq xo‘jalik. Sohadagi iqtisodiy islohotlar.

**O‘zbekiston dehqonchiligi.** Dehqonchilik tarmoqlari. Sug‘orma va lalmikor dehqonchilik, ularning ixtisoslashuvi va hududiy tarqalishidagi farqlar. Paxtachilik. Donchilik. Bog‘dorchilik va uzumchilik. Kartoshkachilik, sabzavotchilik va polizchilik. Shahar atrofidagi hududlarda dehqonchilikning xususiyatlari. Yalpi hosil, ekin maydon va hosildorlik tushunchalari.

**O‘zbekiston chorvachiligi.** Chorvachilik tarmoqlari. Vodiy-vohalarda, yirik shaharlar atrofida, lalmikor yerlarda, cho‘l va tog‘ yaylovlarida chorvachilikning rivojlanishi, ixtisoslashuvi, dehqonchilik bilan aloqadorligi.

**Yengil sanoat.** Yengil sanoat, uning 2 ta tarmoqlar guruhiga bo‘linishi (qishloq xo‘jalik xom ashyosini birlamchi qayta ishlash tarmoqlari va tayyor mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlari), joylashish omillari. O‘zbekistondagi yengil sanoatning asosiy tarmoqlari va korxonalari.

**Oziq-ovqat sanoati.** Oziq-ovqat sanoati va uning joylashishidagi asosiy omillar. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining 2 ta guruhga bo‘linishi: ko‘p xomashyo talab qiluvchi tarmoqlar hamda saqlash muddati qisqa bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoq va mahsulotlari. Mustaqillik yillarida rivojlanib ketgan tarmoqlari.

**Transport.** Transport, uning turlari. Yuk va yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari. Yo‘llar uzunligi va zichligi ko‘rsatkichlari, ularning geografik sharoit bilan bog‘liqligi. Magistral, polimagistral, transport tuguni tushunchalari.

**O‘zbekiston transportining zamonaviy rivojlanishi.** O‘zbekiston transport tizimi, uning tarmoq va hududiy jihatlari. O‘zbekistonning mustaqillik davridagi dunyo okeaniga chiqish imkoniyatlarini oshirish va mamlakat transport tizimining bir butunligini ta‘minlash borasidagi xatti-harakatlari. Mustaqillik yillarida qurilgan yangi yo‘llar. Tezyurar temir yo‘l tarmoqlarining rivojlanishi.



**Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari.** Xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismlari. Vazifalari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari joylashishining aholi soni va tarkibi, aholi manzilgohlarining yirikligi, talabning davriyligi hamda yo'llar bilan chambarchas bog'liqligi.

**Bank tizimi.** Banklar va ularning funksiyalari haqida tushuncha. Bank tizimi. Markaziy bank va tijorat banklari. Bank omonatlari. Bank krediti, kredit foizi, foiz stavkasi.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: Bank kreditlari va omonatlariga oid masalalarni yechish.

**Loyiha darsi. O'zbekistonda rekreatsiya va turizmning rivojlanishi.** Rekreatsiya va turizmning mazmun-mohiyatini tushunish va o'zaro ajrata olishga qaratilgan munozara. Rekreatsiya va turizmning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati, Rekreatsiya va turizm resurslari haqida taqdimot. O'zbekistonning rekreatsion imkoniyatlarini tahlil qilish, respublikamizda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish yo'llari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

**O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.** Xalqaro iqtisodiy aloqalar va ularning turlari: xalqaro savdo, qo'shma korxonalar, xalqaro turizm, moliya-kredit munosabatlari. Tashqi savdo. Tashqi savdo aylanmasi va balansi. O'zbekiston eksport va importning tovar tarkibi, uning dinamikasi. Asosiy tashqi savdo hamkorlari.

**Nazorat ishi.**

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzulardagi tayanch tushunchalarini takrorlash va mustahkamlash. Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik)ga yo'naltirilgan va fanlararo bog'liqlikka doir (mantiqiy) savol va topshiriqlar.

## **VI bob. ISTE'MOLCHILARNING DAROMAD VA XARAJATLARI**

**(4 soat)**

**Iste'molchilarning daromadlari. Jamg'arish va sug'urta.** Oila byudjeti. Iste'molchilarning daromadlari. Ish haqi. Oylik maosh. Ishbay ish haqi. Vaqtbay ish haqi. Daromadning boshqa manbalari. Jamg'arish mohiyati va maqsadlari. Jamg'arish usullari. Bank omonati. Sug'urta.

**Iste'molchilarning xarajatlari.** Iste'molchi xarajatlari. Majburiy xarajatlar. Erkin xarajatlar. Iste'mol savatchasi. Engel qonuni. Iqtisodiy qarorning mohiyati va nafi. Ratsionallik va maksimallik.

**Inflyatsiya va uning oqibatlari.** Inflyatsiya tushunchasi. Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajalari. Daromadlarning nominal va real o'sishi. inflyatsiya oqibatlari. Inflyatsiyaga qarshi choralar.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA,



TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: iste'molchi daromadlari va xarajatlari, oila byudjeti, inflyatsiya, daromadlarning nominal va real o'sishiga oid masalalarni yechish.

## VII bob. TADBIRKORLIK VA KORXONALAR FAOLIYATI (9 soat)

**Tadbirkorlik, uning turlari va shakllari.** Tadbirkorlik va uning asosiy xususiyatlari. Tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'рни. Biznes g'oya va biznes reja. Tadbirkorlik faoliyatining turlari: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy, vositachilik va sug'urta faoliyati. Tadbirkorlik shakllari.

**Korxonalar turlari.** Yakka tartibdagi xususiy tadbirkorlik. Korxonalar (firma) turlari: xususiy korxonalar, oilaviy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, davlat korxonasi.

**Korxonalar mablag'lari va xarajatlari. Mahsulot tannarxi.** Korxonalar mablag'lari. Asosiy va aylanma mablag'lar. Amortizatsiya va amortizatsiya ajratmasi. Korxonaning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlari. O'rtacha xarajat - mahsulotning tannarxi. Mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari.

**Korxonalar daromadi va foydasi.** Korxonalar daromadi. Korxonalar foydasi va zarari. Sof foyda. Foydaning nominal va real qiymatini aniqlash. Rentabellik. Bankrotlik. Foydaning ahamiyati va uni oshirish usullari.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: korxonalar moliyaviy natijalariga oid masalalarni yechish.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: aksiyadorlik jamiyati faoliyatiga oid masalalar yechish.

**Menejment va marketing.** Menejment va uning mazmuni. Menejmentning vazifalari. Boshqaruv usullari. Marketing tushunchasi. Marketing tadqiqotlari, ularning vazifalari va usullari. Reklama.

**Nazorat ishi.**

**Umumlashtiruvchi dars.** O'tilgan mavzulardagi tayanch tushunchalarini takrorlash va mustahkamlash. Mavzular kesimida amaliyot (kompetentlik)ga yo'naltirilgan va fanlararo bog'liqlikka doir (mantiqiy) savol va topshiriqlar.

## VIII bob. SOLIQLAR (4 soat)

**Soliqlar va ularning turlari.** Soliq va uning mohiyati. Soliq subyektlari va obyekt. Bevosita va bilvosita soliqlar. Davlat va mahalliy soliqlar. Soliq stavkasi. Proporsional soliq stavkasi. Regressiv soliq stavkasi. Progressiv soliq stavkasi.



**Daromad solig'i. Aksiz va qo'shilgan qiymat solig'i.** Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i. Daromad solig'ini hisoblash. Yuridik shaxslardan undiriladigan daromad solig'i. Aksiz solig'i. Aksiz solinadigan tovarlar. Qo'shilgan qiymat solig'i. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekti. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash formulasi.

**Mol-mulk va yer solig'i.** Mol-mulk solig'i. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i. Yer solig'i. Yer solig'i stavkasi va unga ta'sir etuvchi omillar. Mol-mulk va yer oliqlarini to'lash tartibi.

**Amaliy mashg'ulot.** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlash: turli soliqlarga oid masalalar yechish.

## **IX bob. O'ZBEKISTONNING REGIONAL TAVSIFI** **(28 soat)**

